

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'l yozma huquqida

UDK:.....

MAMADALIEVA MUKAMBAR MURODJON QIZI

**O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYALASHTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH (“Mikrokreditbank” aktsiyadorlik –tijorat banki
misolida)**

5A230701-“Bank ishi” (Faoliyat turlari bo'yicha)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.n,dots. Toymuhamedov I.R.

Toshkent – 2018 y.

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYALASHTIRISH TIZIMI VA UNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	8
1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mikromoliyalashtirish tizimi va uning ahamiyati	8
1.2. Mikromoliyaviy xizmatlar tizimini tashkil etishning huquqiy asoslari	18
I-bob bo'yicha xulosalar	23
2-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MIKROMOLIYALASHTIRISH TIZIMI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH HOLATI TAHLILI	25
2.1. O'zbekistonda mikromoliyalashtirish tizimi va ularni amalga oshirish tartibi	25
2.2. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash xususiyatlari va holati tahlili	32
2.3. ATB "Mikrokredit bank"ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash faoliyati va uni tahlili	38
II-bob bo'yicha xulosalar	49
3-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MIKROMOLIYAVIY XIZMATLAR BOZORINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	51
3.1. O'zbekistonda mikromoliyaviy xizmatlar bozoridagi mavjud muammolar	51
3.2. O'zbekistonda mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish tizimini rivojlatirishning yo'nalishlari	56
III-bob bo'yicha xulosalar	64
XULOSA VA TAKLIFLAR	66
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	69

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Iqtisodiy - siyosiy rivojlanishning sifatan yangi darajasida turgan O'zbekiston Respublikasi, butun ma'rifatli dunyo singari, o'z tarakkiyotining yangi istiqbollari, yangi strategiyasini belgilamokda.

Shu sababli, islohotlarning bosqichma-bosqich o'tkazilishi, demokratik va bozor islohotlari yulidan izchil va og'ishmay borish, kuchli ijtimoiy siyosat va aholining eng nochor katlamlarini himoya qilish bilan birgalikda, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning ijobiy natijalarini, ularning qo'llab-quvvatlanishi va e'tirof etilishini oldindan belgilab berdi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, kichik biznes faoliyati va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo'lgan mulkdorlar sinfini, ya'ni o'rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Bunga yaqinda tasdiqlangan va bajarilishga o'tilgan 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga binoan 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi¹ ishlab chiqirilganini yaqqol misol deb aytish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Bugun mamlakatimizning barqaror rivojlanish yo'lida izchil ilgarilab borishini tahlil qilar ekanmiz, o'tgan yili printsiptial muhim islohotlarni amalga oshirish bo'yicha qat'iy qadamlar qo'yildi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Bu islohotlarning asosiy maqsadi – aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlashdir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. PF-4947-sonli Farmoni. 07.02.2017 y.

Jadal va barqaror rivojlanishga qaratilgan bu siyosat bundan keyin ham so'zsiz davom ettiriladi.”²

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirilishida moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar asosiy o'rinni egallamoqdalar. Ularning moliyaviy ko'maklari evaziga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari va tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan aholining iqtisodiy faol qismi o'z bizneslarni yo'lga qo'ymoqdalar, chunki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda kreditning ahamiyati kattadir. Kreditlash asosan moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar odatda tijorat banklari, lombardlar, mikrokredit tashkilotlari va boshqa kredit tashkilotlaridan tashkil topadi.

Shunday ulkan vazifalarini amalga oshirishda mikromoliyalashtirish tizimini taxlil etish, o'rganish va ularni respublika iqtisodiyotiga tadbik etish kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirish lozim.

Mazkur magistrlik dissertatsiya ishida asosiy e'tibor qayd etilgan muammolarning mohiyatini ochib berish va ularni hal etishga qaratiladi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Ilmiy ishning ob'ekti bo'lib O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining, tijorat banklarining va xususan ATB "Mikrokredit" bankining mikromoliyalashtirish tizimidagi faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining va mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning kredit tizimidagi urni, ularning operatsiyalari, ularga tashkil etuvchi omillar, undagi muammolarni xal etish yulidagi iqtisodiy munosabatlari hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Magistrlik dissertatsiya ishining asosiy maqsadi bo'lib mikromoliyalashtirish tizimini mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga ta'sirini chuqur o'rganish va taxlil etish asosida ularni kichik tadbirkorlikni moliyalashtirish hamda kreditlashni takomillashtirish bo'yicha

² Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak // Xalq so'zi. 14 yanvar 2017 yil.

ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun ilmiy ish oldiga quyidagi vazifalar belgilab olindi va hal etildi:

- mikromoliyalashtirishning zarurligi va mohiyatini o'rganish;
- mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish jarayonida tijorat banklarining mikromoliyalashtirish mohiyati va asosiy vazifalari bilan tanishish;
- kichik tadbirkorlik sub'ektlarini tijorat banklari va mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar tomonidan mikromoliyalashtirish jarayonlaridagi mavjud muammolarni aniqlash;
- Mikromoliyalashtirish tizimida xorij mamlakatlari amaliyotini o'rganish va uni O'zbekiston iqtisodiyotiga joriy etish bo'yicha takliflar berish;
- kichik tadbirkorlik sub'ektlarini mikromoliyalashtirish tizimini takomillashtirish yunalishlari bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Magistrlik dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotga tadbiiq etilishi tijorat banklarining mikromoliyalashtirish bilan operatsiyalarini tashkil etish yo'llarini va ular bilan bog'liq faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlanish potentsialini oshirishga qaratilgan banklar faoliyatining rivojlanishini sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar sharxi (tahlili). Tijorat banklarining kichik tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash faoliyatini taxlil etish masalalari xorijlik bir qator taniqli iqtisodchilar, K.Baynke, E. Vasilishen, A.Gryaznova, M.Gudfrend, E. Dolan, V.Kolesnikov, O. Lavrushin, A. Babichev, J.Matuk, G.Panova, Dj.Sinkining ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan "Yo.Abdullaev, Sh.Abdullaeva, A.Kamolov, S.Norqobilov, O.Olimjonov, G.Saidova, A.Qodirov, T.Qoralievlarning ilmiy ishlarida mazkur masalaning aloxida muhim jihatlari o'z aksini topgan.

Ammo O'zbekiston Respublikasining bugungi kundagi bozor iqtisodiyoti ushbu masalani yanada chuqurroq va har tomonlama kengroq ko'rib chiqishni taqazo etmoqda.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqot jarayonida markaziy bank, tijorat banklarining mikromoliyalashtirish va kreditlash faoliyatini olib boradigan jarayonlariga oid O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning asarlari va farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi Qarorlari, shuningdek Markaziy bank va ayrim tijorat banklarining me'yoriy, hisobot va boshqa materiallaridan foydalanildi.

Tadqiqotning uslubiy asosi bo'lib iqtisodiy hodisalarni o'zaro bog'liqlikda va alohida o'rganishni nazarda tutuvchi bilishning dialektik usuli hisoblanadi. Magistrlik dissertatsiya ishini tayyorlash jarayonida tadqiqotning mantiqiy va taqqoslama tahlil ma'lumotlarni guruhlash yo'li bilan statistik qayta ishlash usuli, moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash uslublaridan foydalanildi.

Tadkikot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ilmiy yangilik elementlari yaxlit tavsifga ega va respublika iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida tijorat banklarining kredit operatsiyalari va ulardagi mavjud muammolarni hal etish va takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy-tadkikot ishlarini amalga oshirishda ta'lim muassasalarida kredit yunalishi buyicha ta'lim olayotgan talablar va magistrantlar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Tadqiqot ishining asosiy natijalari universitetda o'qitiladigan «Bank ishi», «Pul va banklar» va «Pul, kredit va banklar» fanlaridan ma'ro'za matnlarini tayyorlashda foydalanish mumkin

Tadkikotning ilmiy yangiligi. Magistrlik ishida mavjud bo'lgan iqtisodiy, nazariy tushunchalar yordamida banklarning mikromoliyalashtirish tizimidagi operatsiyalarini amalga oshirishdagi ahamiyati va muammolari ko'rib chiqilgan;

✚ mavjud bo'lgan iqtisodiy, nazariy tushunchalar yordamida banklarning mikromoliyalashtirish tizimidagi operatsiyalarini amalga oshirishdagi ahamiyati va mijozlar bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rni o'rganilgan;

✚ iqtisodiy islohotlar davrida mikromoliyalashtirish tizimi mohiyati va uni tashkil qilishning nazariy asoslari yoritib berilgan;

✚ tijorat banklarining iqtisodiyotda kredit operatsiyalarini, xususan mikrokreditlashni rivojlantirishidagi o'rni aniqlangan;

✚ bank tizimining mikromoliyalashtirish tizimidagi muammolari aniqlanadi va ularning sabablari tahlil qilingan;

✚ mamlakatimizda tijorat banklarining mikromoliyalashtirish tizimi va ular bilan bog'liq faoliyatini iqtisodiyot rivojlanishidagi mavjud muammolarini bartaraf etish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob va xulosa va takliflar qismlaridan iborat.

Dissertatsiya ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti, mavzu bo'yicha adabiyotlarning qisqacha tavsifi, tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati, ishning ilmiy yangiligi va dissertatsiya ishining tarkibiy tuzulishi bayon qilgan.

I-bobda O'zbekiston Respublikasida mikromoliyalashtirish tizimi va uni shakllantirishning nazariy asoslari, mikromoliyalashtirish tizimining ahamiyati, mikromoliyaviy xizmatlar tizimini tashkil etishning huquqiy asoslari yoritilgan.

II-bobda O'zbekiston Respublikasida mikromoliyalashtirish tizimi va ularni amalga oshirish holati tahlili, mikromoliyalashtirish tizimini tashkil etish tartibi, mikromoliyaviy xizmatlar tizimining zamonaviy holati va O'zbekiston Respublikasi ATB "Mikrokredit bank"ida mikromoliyalashtirish amaliyoti va uni tahlili tadqiq qilingan.

III-bobda Ishning uchinchi bobida O'zbekiston Respublikasida mikromoliyaviy xizmatlar bozorini takomillashtirish muammolari va istiqbollari, ulardagi muammolar, mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish tizimini rivojlantirishning yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqilgan.

Xulosa va takliflar qismida magistrlik dissertatsiya ishining asosiy natijalari jamlanib ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asoslab berilgan.

I-BOB.O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYALASHTIRISH TIZIMI VA UNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mikromoliyalashtirish tizimi va uning ahamiyati

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari yildan – yilga o'z mavqeyini mustaxkamlab bormoqdalar. Ular maxaliy xomashyo negizida eksportbop yoki import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, iste'mol bozorini sifatli tovarlar bilan to'ldirish, aholini ish bilan band qilish, jamiyatga esa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash orqali katta naf keltiradi.

Iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi³.

Bunga yaqinda tasdiqlangan va bajarilishga o'tilgan 2017 yil 7 fevraldagi “2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoniga binoan 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi⁴ ishlab chiqirilganini yaqqol misol deb aytish mumkin.

Shunga ko'ra iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

-xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni

³ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.T.: O'zbekiston, 2010. 3 bet.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni. PF-4947-sonli Farmoni. 07.02.2017 y.

bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi» degan tamoyilni amalga oshirish va boshqalar.

Ushbu chora-tadbirlar soliq va kredit imtiyozlari bilan bir qatorda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay biznes muhitini yaratish maqsadida instituttsional islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ham o'z ichiga oladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo'lgan mulkdorlar sinfini, ya'ni o'rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi⁵.

Shunday ulkan vazifalarini amalga oshirishda bank tizimi kredit berish amaliyotlarini taxlil etish, urganish va ularni respublika iqtisodiyotiga tadbik etish kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirish lozim edi.

Mamlakatimizda kasanachilik faoliyati va xususiy tadbirkorlik davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o'rin egallaydi. Bugungi kunda biz bu sohani rivojlantirmasdan turib iqtisodiyotimizning kelajagini ta'minlay olmaymiz. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirishda, aholini ish bilan ta'minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda eng asosiy omillardan biri hisoblanadi hamda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo'lgan mulkdorlar sinfining, ya'ni o'rta sinfning shakllanishi va mustahkamlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, bu soha hozirda jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning kafolati va tayanchiga, yurtimizni taraqqiyot yo'lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda.


Kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muhitini ta'minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar etkazib berish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ikkilamchi bandlikni ta'minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy inqilobni jadallashtirish,

⁵ Karimov I.A "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi" T. 21.01.2011 y.

resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish, soliq tushumlari hajmining o'sishini ta'minlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" 15.05.2017 yildagi PF-4725-son Farmoni va "Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 28 apreldagi PQ-2340-son qarorining bajarilishi borasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyatiga davlat va nazorat tuzilmalarining aralashuvini keskin kamaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil etish tartibini soddalashtirish va faoliyat yuritishning moddiy-texnik shart-sharoitlarini ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga soliq va boshqa to'lovlar borasida engilliklar yaratish, hisobot topshirish tizimini takomillashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash mexanizmini yanada takomillashtirish, kichik biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, ularining tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi ishtirokini kengaytirish, ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo'l ochib berish, kichik biznes sub'ektlariga taqdim etilayotgan imtiyozlar va qulay sharoitlar tizimini yanada rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan.

Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash imkonini bermoqda. 2000-2016 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi 31,0 foizdan 56,9 foizga o'sib, 25,9 foiz birlikka ortgan (1-rasm).



1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi. (foizda).⁶

O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror sur'atlarda rivojlantirish omillaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy etishini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu soha bozor kon'yunkturasi o'zgarishlariga tez moslasha olishi, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi bandligini ta'minlash va daromad manbalarini yaratishi, o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish xususiyatlariga egaligi bilan ajralib turadi.

2016 yilda respublikamiz hududlari bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi Namangan va Jizzax viloyatlarida yuqori darajaga yetib, 80,3 foizni tashkil etgan. Shuningdek, Samarqand viloyatida bu ko'rsatkich 78,0 foiz, Surxondaryo viloyatida 75,3 foiz va Xorazm viloyatida 74,2 foizni tashkil etgan. Sirdaryo, Buxoro, Andijon, Farg'ona, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 50-70 foizlar oralig'ida bo'lib, o'rta darajani qayd etgan. Shu bilan birga, past daradaja qolayotgan Navoiy viloyatida bu ko'rsatkich 37,6 foizni tashkil etgan (1-jadval).

⁶ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi⁷

(foizda)

	yillar				2000-2016 yillarda o'zgarish (+;-)
	2000 y. ¹⁾	2005 y.	2010 y.	2016 y.	
Yuqori darajada					
Namangan viloyati	33,4	45,2	76,0	80,3	46,9
Jizzax viloyati	37,1	58,3	77,3	80,3	43,2
Samarqand viloyati	44,3	49,9	73,6	78,0	33,7
Surxondaryo viloyati	39,1	42,8	71,7	75,3	36,2
Xorazm viloyati	34,2	47,1	71,8	74,2	40,0
O'rta darajada					
Sirdaryo viloyati	38,9	59,8	77,4	68,7	29,8
Buxoro viloyati	33,0	40,7	64,1	67,9	34,9
Andijon viloyati	32,9	35,8	54,7	66,0	33,1
Farg'ona viloyati	32,0	40,8	59,5	63,4	31,4
Toshkent shahri	41,5	46,4	49,9	58,9	17,4
Toshkent viloyati	34,0	32,3	54,7	57,1	23,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26,9	45,1	63,6	57,0	30,1
Qashqadaryo viloyati	25,8	34,9	55,0	51,7	25,9
Past darajada					
Navoiy viloyati	21,5	18,5	34,4	37,6	16,1

¹⁾ Kichik va o'rta biznes

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarini har tomonlama qo'llab quvvatlash va ularga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning soni yil sayin oshib bormoqda. 2017 yil 1 yanvar holatiga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub`ektlari soni (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) 218170 tani tashkil etib, 2000 yilga nisbatan 118731 taga yoki 2,2 barobar ko'paygan.

⁷ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish orqali uning YaIMdagi ulushini oshirish, aholini ish bilan band etish, real daromadlarini ko'paytirish va turmush farovonligini yaxshilashda mikromoliyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Mikromoliyalash aholini kambag'allikdan xalos etishi, ya'ni mehnatga layoqatli, iqtidorli aholi qatlamiga ish o'rinlari yaratish orqali o'z g'oya va yangiliklarini ro'yobga chiqarishi, daromad olish manbalarini kengaytirish asosida turmush farovonligini yaxshilashi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'li bilan ularni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy faol sub'ektlariga aylanishiga imkon beradi.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlar xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning reytinglarida o'zining ijobiy ifodasini topmoqda.

O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlash, uy xo'jaligi daromadlarining shakllanishi kabi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar echimi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini mikromoliyalash amaliyotining qay darajada rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi. Hozirda respublikamizda mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi barcha moliya-kredit institutlari ushbu xizmat turiga bo'lgan jami talabni qondira olmaydi.

2016 yilda O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining asosi bo'lgan biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2016 yil oktyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini rejadan tashqari va muqobil tekshirishlarning barcha turlarini bekor qilish orqali yanada qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga qaratilgan Farmoni qabul qilindi.

Ushbu hujjatda asosiy e'tibor kichik va xususiy korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va ularning eksport faoliyatini rag'batlantirishni ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarga qaratilgan bo'lib, bu tarmoqlar va hududlar iqtisodiy rivojlanishining hamda aholi bandligini ta'minlashning muhim yo'nalishi bo'lishi lozim.

Xususiy mulk va kichik biznes manfaatlarini ishonchli himoya qilish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar 2016 yilda ushbu sohaning barqaror rivojlanishi uchun imkon yaratdi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan mahsulotlar qo'shilgan qiymati yil davomida o'sib bordi va birinchi chorakda – 43,1%ni, ikkinchi chorakda – 46%ni, uchinchi chorakda – 54,6%ni va yil yakuni bo'yicha 56,9%ni tashkil etdi hamda 2017 yilga nisbatan 0,4 f.b.ga o'sdi. 2016 yil davomida YaHMda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining yuqori o'sish sur'ati Jizzax (1-chorakdagi 61,6%dan yil yakunida 80,3%ga), Namangan (68,2%dan 80,3%ga), Samarqand (67,7%dan 78%ga) shuningdek, Surxondaryo, Xorazm, Sirdaryo, Buxoro va Andijon viloyatlarida qayd etildi.

2016 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 6 barobardan ziyodga o'sib, I chorakdagi 3235,9 mlrd.so'mdan yil yakuni bo'yicha 19963,2 mlrd.so'mgacha o'sdi va respublika bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining 40,3%ini yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish 122,9%ni tashkil etdi.

2016 yil yakuniga ko'ra, KTdagi bandlar soni 10392,5 ming kishini tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga (10178,9 ming kishi) nisbatan 102,1% ni tashkil etdi. Iqtisodiyotdagi jami bandlar tarkibida KTdagi bandlarning ulushi 78,1%ni tashkil etdi. KTning individual sektorida – 8212,1 ming kishi (2017 yilga nisbatan o'sish 3,3 f.b.), kichik korxona va mikrofirmalarda – 2180,4 ming kishi mehnat qilmoqda. KTning xususiy sektori hissasiga 9573,5 ming kishi yoki kichik biznesda band bo'lganlarning 92,1%i to'g'ri kelmoqda⁸.

Hukumat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun yaratilgan qulayliklar va imtiyozlar tufayli, yangi tashkil etilgan sub'ektlar soni

⁸ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

sezilarli ortdi va 2017 yildagi 225998 birlikdan (o'sish 26,9 ming birlik) 2016 yilda 233292 birlikka (o'sish 31,8 ming birlik) ko'paydi. Tarmoqlar kesimida eng ko'p tashkil etilgan yangi kichik biznes sub'ektlari soni sanoat va qurilish sohasi (9654 birlik), savdo (8536), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (3337), xizmatlar sohasi (2839), tashish va saqlash sohasi (1666) va boshqa sohalarga (5734) to'g'ri keldi. Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar sonining o'sishi Toshkent shahri (o'sish 23,5%), Toshkent (9,2%), Andijon (8,4%), Samarqand (7,2%), Farg'ona (8,0%), Buxoro (5,8%), Jizzax (4,7%), Xorazm (4,7%) viloyatlarida qayd etildi.

Tashkil etilgan kichik biznes sub'ektlari ulushi bo'yicha respublika o'rtacha darajasidan past ko'rsatkichlar Navoiy (2,7%), Sirdaryo (3,8%) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (4,1%) bo'yicha qayd etildi.

Biznesni faollashtirish bo'yicha chora-tadbirlar yangi kichik korxonalar va mikrofirmalarni paydo bo'lishiga, eng muhimi yangi ish o'rinlarini yaratishga hissa qo'shdi. 1-rasm ma'lumotlariga ko'ra 2016 yilda 26 mingdan ziyod yangi sub'ektlar hamda 480 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi. 2017 yil 1 yanvar holatiga ro'yxatga olingan sub'ektlar soni 221140 birlikni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil etdi. Kichik biznesda bandlar soni 9897,5 ming kishiga yoki o'tgan yilga nisbatan deyarli 4,8 f.b.ga o'sdi hamda respublika iqtisodiy faol aholisining 77,2%ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan aholiga pullik xizmatlar hajmi 11004,3 mlrd.so'mni (o'tgan yilga nisbatan 116,9% o'sish) tashkil etdi. Umumiy pullik xizmatlar hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 48,5%ni tashkil etdi.

So'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga davlat tomonidan katta e'tibor berilishi hamda qo'llab-quvvatlanishi natijasida uning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirilishida moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar asosiy o'rinni egallamoqdalar. Ularning moliyaviy ko'maklari evaziga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari va tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan aholining iqtisodiy faol qismi o'z bizneslarni

yo'lga qo'ymoqdalar, chunki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda kreditning ahamiyati kattadir. Kreditlash asosan moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar odatda tijorat banklari, kredit uyushmalari, lombardlar, mikrocredit tashkilotlari va boshqa kredit tashkilotlaridan tashkil topadi.

Moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlardan biri bu banklardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438 sonli "2011-2017 yillarda Respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori asosida quyidagi chora tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan edi:

- xalqaro moliya muassasalari va xorijiy mamlakatlar xukumatlari tomonidan ajratiladigan grantlar va kredit liniyalari miqdorini oshirish;

- tijorat banklarida imtiyozli kreditlash jamg'armalarini tashkil etish, jamg'arma mablag'larini uzoq hamda borish qiyin bo'lgan joylarda, shuningdek aholi zich yashovchi hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash uchun safarbar etish;

- iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni kreditlash hajmini oshirib borish;

- mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni harid qilish uchun aholiga iste'mol kreditlari berishni yanada oshirish va hokazolar belgilab berilgan edi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar keng jalb etilmoqda. Xususan, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Germaniya taraqqiyot banki (KfW), Xitoy Xalq Respublikasi Hukumati va boshqa xorijiy investorlar tomonidan kreditlar ajratildi.

Respublikada nobank kredit tashkilotlari tizimini rivojlantirish borasida ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida ularning soni, aholining keng qatlamlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish imkoniyati kengayib bormoqda.

2017 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra nobank kredit tashkilotlarining umumiy soni 76 tani, shundan mikro kredit tashkilotlari soni 29 tani hamda lombardlar soni 47 tani tashkil etmoqda. Xususan, 2016 yil mobaynida respublikamiz hududlarida 15 ta yangi nobank kredit tashkilotlari tashkil etildi. Shulardan 5 tasi mikro kredit tashkiloti va 10 tasi lombardlardir.⁹

Lombard (frantsuz tilidan tarjima qilinganda Lombard) moliya muassasasi, ko'char mulk garovga qo'yish asosida ssuda beruvchi tashkilot tushuniladi.

Lombardlar - fuqarolarga tegishli bo'lgan ko'char mulklar garovga qo'yilgan holda lombardlar tomonidan fuqarolarga kredit berish tushuniladi ya'ni lombardlar aholidan tilla taqinchchoqlar va boshqa likvid buyumlarni garovga qo'yish evaziga ma'lum bir shartlar va foizlarda moliyaviy xizmatlar ko'rsatmoqdalar.

O'zbekiston respublikasida lombardlar 2002 yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «O'zbekiston Respublikasi xududida lombardlarni ro'yxatdan o'tkazish va ular faoliyatini litsenziyalash masalalari to'g'risida»gi 402 - sonli Qarori bilan faoliyat yuritib kelmoqdalar. 2017 yilning 1 yanvar holatiga lombardlarning soni 47 tani tashkil qilmoqda. Mikro kredit tashkilotlari mikromoliyaviy xizmatlar bozorining eng yosh ishtirokchilorida biridir. Ular 2006 yil 25 avgustdan buyon O'zbekiston Respublikasi "Mikro kredit tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan dan so'ng faoliyat yuritmoqdalar.

Mikro kredit tashkiloti - mikro kredit, mikroqarz, mikrolizing berish sohasida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va «Mikro kredit tashkilotlari to'g'risida»gi Qonunga muvofiq boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxsdir.

“Mikro kredit tashkilotlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq mikro kredit tashkilotlarining boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlardan farqi, ular qarz majburiyatlarini chiqarishga hamda jismoniy shaxslardan omonatlar (depozitlar) qabul qilishga haqli emas deb ko'rsatilgan.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

Bugungi kunda mikrokredit tashkilotlari mikrokredit yoki mikroqarz berish, qarz majburiyatini sotish yoki sotib olish(faktoring), mikrokredit tashkiloti lizing beruvchi sifatida ishtirok etadigan mikrolizing (moliya ijarasi) va qonun xujjatlariga muvofiq boshqa turdagi mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan iste'mol kredit berish bilan shug'ullanmoqdalar. Mikrokredit tashkilotlari kredit siyosatiga muvofiq o'rtacha yillik 60 % gacha mikrokreditlar bermoqdalar. Garov, ta'minot sifatida ular tilla taqinchoqlar, texnika asbob uskunalar va boshqa buyumlar qabul qilishadi.

Shuningdek mikrokredit tashkilotlar tijorat banklar va kredit uyushmalar singari depozitlar qabul qilmaydi. Unga ko'ra tijorat banklar tomonidan ajiratilayotgan kreditlar va mikrokreditlar uchun foiz stavkalari o'rtacha yillik 18 foizni, mikrokredit tashkilotlarida yillik 22 foizni tashkil qilayotgan bo'lsa, lombardlarda bu foiz stavkasi ancha balandroq. Lombardlar bir oyiga 18-20 foizgacha yillik foiz stavkalari esa tahminan 210 foizni tashkil qilmoqda. Amalga oshirilayotgan tashkiliy o'zgarishlar, yaratib berilgan iqtisodiy imtiyozlar va rag'batlantirish choralariga qaramay, xo'jaliklarning ichki ishlab chiqarish munosabatlari sekin o'zgarmoqda. qishloq xo'jaligining samarali ishlashini ta'minlash kerak bo'lgan o'zaro oldi-berdi qiluvchi tarmoqlarning hamkorlik qilish mexanizmi yaxshi ishlab chiqilmagan.

Shu sababli, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichidagi asosiy vazifa islohotlarning borishini sekinlashtirayotgan sabablarni tezroq bartaraf etishdan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlaridagi iqtisodiy munosabatlarni, eng avvalo, mulkchilik munosabatlarini yangilashni tugallashdan iborat bo'lmog'i kerak.

1.2. Mikromoliyaviy xizmatlar tizimini tashkil etishning huquqiy asoslari

Respublikamizda davlat tomonidan amalga oshiriladigan islohotlar strategiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri mikromoliyalashtirish hisoblanadi. Xozirgi vaqtda respublikada mikromoliyalashtirishni rivojlantirish

uchun zarur normativ–xuquqiy baza yaratilgan. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga qaratilgan bir qator farmonlar va qarorlar qabul qilindi.

Jumladan, «Mikromoliyalash tug'risida», «Kredit uyushmalari tug'risida», «Mikrokredit tashkilotlari tug'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Maxkamasining «Mikromoliyaviy xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari tug'risida» 2007 yil 19 fevraldagi 37-sonli qarorlari qabul qilindi.

Shu bilan birga, O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2011 yil 11 martdagi PQ – 1501 sonli “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining kreditlash hajmlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida” gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2011 yil 19 martdagi 79-sonli “Tijorat banklarining kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 maydagi PF-4192-sonli “Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi PF-4354-sonli “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulash ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi Farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438 sonli “2011-2017 yillarda Respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi qarori asosida bir nechta chora tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi bank kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlariga quyidagi kredit turlarini taqdim etadi:

- oborot mablag'larini to'ldirish uchun milliy valyutadagi kreditlar, investitsiya loyihalarini moliyalash;
- import kontraktlari bo'yicha texnologiyalar, mashina-uskunalar, materiallar va xizmatlar sotib olish uchun xorijiy valyutadagi kreditlar;

- kichik biznes subektlariga milliy va xorijiy valyutada mikroreditlar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlariga quyidagilar kiradi:

- dehqon xo'jaliklari;

- fermer xo'jaliklari;

- yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat yurituvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar;

- ishlab chiqarish tarmoqlarida yil davomida ish bilan band bo'lgan xodimlari o'rtacha soni — 10 kishidan; savdo, xizmat ko'rsatish hamda noishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlarida — 5 kishidan oshmaydigan mikrofirmalar;

- sanoat sohasida yil davomida ish bilan band bo'lgan xodimlari o'rtacha soni — 40 kishidan; qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida — 20 kishidan; fan, ilmiy xizmatlar ko'rsatish, chakana savdo hamda noishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlarida — 10 kishidan oshmaydigan kichik korxonalar;

- yil davomida ish bilan band bo'lgan xodimlari o'rtacha soni kichik korxonalar uchun belgilanganidan oshiq bo'lgan, lekin sanoat sohasida — 100 kishidan; qurilishda — 50 kishidan; qishloq xo'jaligi, boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari, ulgurji savdo, umumiy ovqatlanish sohalarida — 30 kishidan; chakana savdo, xizmat ko'rsatish sohasi va noishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlarida — 20 kishidan oshmaydigan o'rtacha korxonalar.

Bunda, avvalambor oilaviy biznes va hunarmandchilikni rivojlantirish, boshlang'ich kapitalni shakllantirish hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish maqsadida uzoq va o'rta muddatli kreditlar ajratishni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ravnaq topishi uchun tijorat banklari o'z kredit resurslarini:

- investitsion maqsadlar – korxonalarni modernizatsiyalash va texnologik yangilash, zamonaviy yuqori texnologiya asosida innovatsion ishlab chiqarishni

yo'lga qo'yish hamda boshlang'ich kapital va aylanma mablag'larni to'ldirish uchun 1,3 barobar;

- tadbirkorlik tuzilmalari, fermer xo'jaliklariga minitexnologiya va ixcham asbob-uskunalar xarid qilishi va ko'rsatiladigan lizing xizmatlari uchun 1,5 barobar;

- iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi xo'jalik sub'ektlariga xomashyo va materiallar sotib olish, faktoring xizmatlari ko'rsatish uchun 1,2 barobar;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda soha vakillariga ko'rsatiladigan bank xizmatlari hajmini 1,6 barobar oshirish va h.k.

Tijorat banklarining imtiyozli kreditlash hajmini kengaytirishdagi faolligini oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash hajmlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 11 martdagi qarori muhim rag'batlantiruvchi omil bo'ldi. Hujjatda tijorat banklarining Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratilgan kreditlaridan oladigan daromadlari 2016 yilning 1 yanvariga qadar foyda solig'idan ozod qilindi.

Unda tijorat banklarining Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi mablag'lari ustuvor ravishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi yuqori texnologiyali va innovatsiya loyihalarini, uzoq va borish qiyin bo'lgan tumanlarda, shuningdek mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan tumanlar va shaharlarda joylashgan ishlab chiqarish mikrofirmalarini, kichik korxonalarni, dehqon va fermer xo'jaliklarini moliyalashtirish uchun ajratilishi belgilangan.

O'zmilliybank ham ishlab chiqarish mikrofirmalari, tadbirkorlar, dehqon va fermer xo'jaliklariga, kichik biznesning boshqa subektlariga imtiyozli kreditlar berish uchun Imtiyozli kreditlash maxsus fondini shakllantirgan. Fond mablag'lari bank foydasining 25 foizigacha bo'lgan qismini ajratish orqali to'ldiriladi.

Imtiyozli kreditlash maxsus fondi mablag'lari hisobidan berilgan kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkalari Markaziy bankning amaldagi takror moliyalash stavkasining 50%dan oshmaydi.

Fond mablag'lari hisobidan kreditlar berish muddatlari kreditlanadigan tadbir o'zini qanday oqlashiga bog'liq bo'ladi, xususan:

- kichik va o'rta tadbirkorlik subektlariga xom ashyo va materiallar, yarim fabrikatlar va boshqa ishlab chiqarish zaxiralarini sotib olishda zarur bo'ladigan oborot mablag'larini to'ldirish uchun kreditlar 1 yil muddatga beriladi;
- fermer xo'jaliklariga, shuningdek yuridik shaxs maqomini olgan dehqon xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishda kerak bo'ladigan oborot mablag'larini to'ldirish uchun kreditlar kamida 2 yilga beriladi;
- kichik va xususiy tadbirkorlik sohasining barcha subektlariga, jumladan yuridik shaxs maqomini olgan fermer va dehqon xo'jaliklariga investitsiya loyihalarini moliyalash uchun kreditlar 5 yilgacha muddatga berilishi mumkin.

Qarz oluvchilarga Imtiyozli kreditlash maxsus fondi mablag'lari hisobidan kreditlar mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, quyidagilar ko'zda tutiladigan tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va kengaytirish uchun beriladi:

- ishlab chiqarish binolarini qurish, texnik qayta qurollantirish va rekonstruktsiyalash;
- mashinalar, uskunalar, jihozlar, anjomlar, urug'lik, chorva mollari va parranda sotib olish;
- xom ashyo va materiallar, jumladan furaj, omixta em, veterinariya preparatlari, o'simliklarni himoyalashning kimyoviy vositalari, mineral o'g'itlar, yonilg'i-moylash materiallari sotib olish hamda ekin maydonlariga ishlov berish yuzasidan mexanizatsiyalashgan xizmatlar haqini to'lash.

Kichik va shaxsiy biznesni rivojlantirish uchun milliy bank tizimi quyidagi maqsadlarni ko'zlab, byudjetdan tashqari fondlarning milliy valyutadagi mablag'larini imtiyozli shartlarda jalb etmoqda:

- dehqon va fermer xo'jaliklarining o'z ishlab chiqarishlarini rivojlantirish hamda kengaytirish, fermerlik inshootlari qurish, qoramol, qo'zi-buzoq, parranda,

furaj va omixta em, veterinariya preparatlari, o'simliklarni himoyalashning kimyoviy vositalari, mineral o'g'itlar, urug'lik, ko'chat sotib olish;

- xom ashyo va materiallarga dastlabki ishlov berish;

- kichik uskunalar, mehnat qurollari, xom ashyo, yarim fabrikatlar, furnitura sotib olish;

- hunarmandchilikni rivojlantirish, kasana mehnatni tashkil etish;

- aholiga servis va maishiy xizmatlar ko'rsatilishini rivojlantirish;

- sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish;

- xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohasi bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish to'g'risidagi tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-4010–sonli farmoniga (19.11. 2008 y.) ko'ra iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Xulosa qilganda, tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka, xususan ularning modernizatsiyalash va texnologik yangilanishiga moliyaviy ko'mak berish, zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish ko'lamini yanada kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratilishi va aholining bandligi ta'minlanishida, ichki iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlarining ko'payishiga va minglab oilalar daromadlari ortishida muhim ahamiyat kasb etadi.

I-bob bo'yicha xulosalar

Birinchi bob natijalari bo'yicha quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Iqtisodiyotni bozor talablari asosida qayta qurishning hozirgi bosqichida banklarning roli keskin ortdi. Ular bir tomondan, iqtisodiyot bozor tomon harakatlanishiga yordam bersa, ikkinchi tomondan, uning muhim sektorlari xo'jaligi samarali taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatadi.

2. O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlash, uy xo'jaligi daromadlarining shakllanishi kabi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar echimi kichik biznes va xususiy

tadbirkorlik sub'ektlarini mikromoliyalash amaliyotining qay darajada rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi. Hozirda respublikamizda mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi barcha moliya-kredit institutlari ushbu xizmat turiga bo'lgan jami talabni qondira olmaydi.

3. Mikrokreditlash tizimini isloh qilish va uni takomillashtirish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos holda qayta tashkil etishning muhim tarkibiy qismi sifatida qarash lozimligidan kelib chiqadi.

4. Yuqoridagi keltirilgan omillardan yakkol ko'rinib turibdiki, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini maxsulotlarini etishtirishni rivojlantirish, uni eksport kuvvatini oshirish uchun barcha siyosiy iqtisodiy negiz yaratib berilmoqda.

Shu bois Respublika mikromoliyalashtirish tizimida bozor munosabatlarini shakllantirish, ko'proq dexqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini yo'lga qo'yish, qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasida hali-beri foydalanilmayotgan katta rezerv va imkoniyatlar mavjudligini tan olgan holda mikromoliyalashtirish tizimini rivojlantirishga kelajakda yanada alohida e'tibor qaratish zarurligini anglatadi.

II-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MIKROMOLIYALASHTIRISH TIZIMI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH HOLATI TAHLILI

2.1. O'zbekistonda mikromoliyalashtirish tizimi va ularni amalga oshirish tartibi

Tijorat banklarining imtiyozli kreditlash hajmini kengaytirishdagi faolligini oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash hajmlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2011 yil 11 martdagi qarori muhim rag'batlantiruvchi omil bo'ldi. Hujjatda tijorat banklarining Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratilgan kreditlaridan oladigan daromadlari 2016 yilning 1 yanvariga qadar foyda solig'idan ozod qilingan.

Mazkur qarorga asosan Vazirlar Mahkamasining “Tijorat banklarining kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2000 yil 19 maydagi 195-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida” 2011 yil 19 martdagi qarori qabul qilindi. Unda tijorat banklarining Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi mablag'lari ustuvor ravishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi yuqori texnologiyali va innovatsiya loyihalarini, uzoq va borish qiyin bo'lgan tumanlarda, shuningdek mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan tumanlar va shaharlarda joylashgan ishlab chiqarish mikrofirmalarini, kichik korxonalarni, dehqon va fermer xo'jaliklarini moliyalashtirish uchun ajratilishi belgilangan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ravnaq topishi uchun tijorat banklari o'z kredit resurslarini:

- investitsion maqsadlar – korxonalarni modernizatsiyalash va texnologik yangilash, zamonaviy yuqori texnologiya asosida innovatsion ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda boshlang'ich kapital va aylanma mablag'larni to'ldirish uchun 1,3 barobar;

- tadbirkorlik tuzilmalari, fermer xo'jaliklariga minitexnologiya va ixcham asbob-uskunalar xarid qilishi va ko'rsatiladigan lizing xizmatlari uchun 1,5 barobar;

- iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi xo'jalik sub'ektlariga xomashyo va materiallar sotib olish, faktoring xizmatlari ko'rsatish uchun 1,2 barobar;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda soha vakillariga ko'rsatiladigan bank xizmatlari hajmini 1,6 barobar oshirish va h.k.

O'zmilliybank ham ishlab chiqarish mikrofirmalari, tadbirkorlar, dehqon va fermer xo'jaliklariga, kichik biznesning boshqa subektlariga imtiyozli kreditlar berish uchun Imtiyozli kreditlash maxsus fondini shakllantirgan. Fond mablag'lari bank foydasining 25 foizigacha bo'lgan qismini ajratish orqali to'ldiriladi.

Imtiyozli kreditlash maxsus fondi mablag'lari hisobidan berilgan kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkalari Markaziy bankning amaldagi takror moliyalash stavkasining 50%dan oshmaydi.

Fond mablag'lari hisobidan kreditlar berish muddatlari kreditlanadigan tadbir o'zini qanday oqlashiga bog'liq bo'ladi, xususan:

– kichik va o'rta tadbirkorlik subektlariga xom ashyo va materiallar, yarim fabrikatlar va boshqa ishlab chiqarish zaxiralarini sotib olishda zarur bo'ladigan oborot mablag'larini to'ldirish uchun kreditlar 1 yil muddatga beriladi;

– fermer xo'jaliklariga, shuningdek yuridik shaxs maqomini olgan dehqon xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishda kerak bo'ladigan oborot mablag'larini to'ldirish uchun kreditlar kamida 2 yilga beriladi;

– kichik va xususiy tadbirkorlik sohasining barcha subektlariga, jumladan yuridik shaxs maqomini olgan fermer va dehqon xo'jaliklariga investitsiya loyihalarini moliyalash uchun kreditlar 5 yilgacha muddatga berilishi mumkin.

Qarz oluvchilarga Imtiyozli kreditlash maxsus fondi mablag'lari hisobidan kreditlar mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, quyidagilar ko'zda tutiladigan tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va kengaytirish uchun beriladi:

- ishlab chiqarish binolarini qurish, texnik qayta qurollantirish va rekonstruktsiyalash;

- mashinalar, uskunalar, jihozlar, anjomlar, urug'lik, chorva mollari va parranda sotib olish;

- xom ashyo va materiallar, jumladan furaj, omixta em, veterinariya preparatlari, o'simliklarni himoyalashning kimyoviy vositalari, mineral o'g'itlar, yonilg'i-moylash materiallari sotib olish hamda ekin maydonlariga ishlov berish yuzasidan mexanizatsiyalashgan xizmatlar haqini to'lash.

Yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat yurituvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklari, shuningdek yuridik shaxs maqomini olgan fermer xo'jaliklari, kichik tadbirkorlikning boshqa subektlariga milliy valyutadagi mikrokreditlar berish shartlari qanday bo'lsa, Imtiyozli kreditlash maxsus fondi hisobidan mikrokreditlar berish shartlari ham xuddi shunday.

Kichik va shaxsiy biznesni rivojlantirish uchun milliy bank quyidagi maqsadlarni ko'zlab, byudjetdan tashqari fondlarning milliy valyutadagi mablag'larini imtiyozli shartlarda jalb etmoqda:

- dehqon va fermer xo'jaliklarining o'z ishlab chiqarishlarini rivojlantirish hamda kengaytirish, jumladan qishloq xo'jaligi texnikasi sotib olish, fermerlik inshootlari qurish, qoramol, qo'zi-buzoq, parranda, furaj va omixta em, veterinariya preparatlari, o'simliklarni himoyalashning kimyoviy vositalari, mineral o'g'itlar, urug'lik, ko'chat sotib olish;

- xom ashyo va materiallarga dastlabki ishlov berish;

- kichik uskunalar, mehnat qurollari, xom ashyo, yarim fabrikatlar, furnitura sotib olish;

- xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'at buyumlari ishlab chiqarish;

- hunarmandchilikni rivojlantirish, kasana mehnatni tashkil etish;

- aholiga servis va maishiy xizmatlar ko'rsatilishini rivojlantirish;

- sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish;

- sayyohlik sohasini rivojlantirish;

- ixcham, lekin ko'p ish bajariladigan korxonalar tashkil etish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda chuqur qayta ishlash;
- mahalliy sanoatni rivojlantirish;
- qurilish va binokorlik materiallari sanoati;
- ko'proq qishloq joylarda eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etish;
- xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohasi bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari.

Xususiyl tadbirkorlik, kichik va xususiyl biznes subektlari, dehqon va fermer xo'jaliklari hisoblanuvchi qarz oluvchilarga Milliy bank quyidagi kredit yo'nalishlari bo'yicha kreditlar beradi:

- ish bilan ta'minlash jamharmasi – 3 yilgacha;
- dehqon-fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi – 3 yilgacha, 6 oygacha imtiyozli davr bilan;

- “Mikrokreditbank” ATB kredit yo'nalishi – 3 yilgacha;

Byudjetdan tashqari fondlarning kredit yo'nalishlari hisobidan beriladigan mikrokreditlar bo'yicha imtiyozli foiz stavkasi kreditlanadigan investitsiya loyihalarining yo'nalishlariga qarab, quyidagi hajmlarda belgilanadi:

- dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirish uchun – amaldagi Markaziy bank takror moliyalash savkasining 1/6 qismi;

- oilaviyl tadbirkorlik subektlariga mikrokreditlar imtiyozli foiz stavkasi bilan beriladi. Bu stavka amaldagi Markaziy bank takror moliyalash stavkasining 1/4 qismini tashkil etadi;

- dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va kengaytirish, qishloq xo'jaligi texnikasi sotib olish, fermerlik inshootlarini qurish uchun – amaldagi Markaziy bank takror moliyalash stavkasining 1/3 qismi;

- xom ashyo va materiallar ishlab chiqarish hamda ularni chuqur qayta ishlash, mahalliy sanoatni rivojlantirish, hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilik mehnatini tashkil etish, qurilish materiallari ishlab chiqarishni tashkil

qilish hamda qurilish ishlarini amalga oshirish uchun – amaldagi Markaziy bank takror moliyalash stavkasining 40%;

- xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun – amaldagi Markaziy bank takror moliyalash stavkasining 45%.

Byudjetdan tashqari fondlarning kredit yo'nalishlari hisobidan beriladigan kreditlar bo'yicha imtiyozli foiz stavkasi kreditlanayotgan investitsiya loyihalarining yo'nalishiga qarab, quyidagi hajmlarda belgilanadi:

– dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirish uchun — Markaziy bank amaldagi takror moliyalash stavkasining 1/6 qismi;

– dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va kengaytirish, qishloq xo'jaligi texnikasi sotib olish, fermerlik inshootlari qurish uchun — Markaziy bank amaldagi takror moliyalash stavkasining 1/3 qismi;

– xom ashyo va meteriallarni ishlab chiqarish hamda chuqur qayta ishlash, mahalliy sanoatni rivojlantirish uchun — Markaziy bank amaldagi takror moliyalash stavkasining 40% hajmida;

– boshqa maqsadlar uchun — Markaziy bank amaldagi takror moliyalash stavkasining 45% hajmida.

“Mikrokredit” – qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun foizlilik, muddatlilik, qaytarilish, ta'minlanganlik va maqsadli foydalanish shartlari asosida, kredit buyurtmasi berilgan vaqtdagi eng kam ish haqi miqdorining ming baravaridan oshmaydigan hajmda, 5 yilgacha muddatga beriladigan pul mablag'lari.

Yuridik shaxs maqomini olmagan tadbirkorlik subektlari bankning o'z mablag'lari hisobidan beriladigan mikrokreditlarni olish uchun bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- kredit olish uchun muayyan shaklda yozilgan buyurtmanoma;
- olinayotgan kreditdan qanday maqsadlarda foydalanilishi majburiy tartibda ko'rsatilgan hamda pul oqimi prognozining tahlili berilgan biznes-reja;
- yakka tartibdagi tadbirkor yoki dehqon xo'jaligining rahbari o'z pasportini taqdim etadi. Bu pasport nusxasi kredit yig'majildiga tikib qo'yiladi;

- kredit qaytarilishi ta'minotiga doir hujjatlar hamda qarz so'rovchini kompleks tahlil qilish uchun zarur boshqa hujjatlar.

Yuridik shaxs maqomini olgan tadbirkorlik subektlari mikrocredit olish uchun bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- kredit buyurtmanomasi;
- pul oqimi prognozining tahlili majburiy tartibda ko'rsatilgan biznes-reja;
- oxirgi hisobot davri uchun tuzilgan, Davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) organi tomonidan qabul qilingan buxgalteriya balansi hamda debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotnoma, shuningdek 90 kundan ortiq qarzdorlik bor-yo'qligini taqqoslash dalolatnomalari, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot;

- kredit qaytarilishi ta'minotiga doir hujjatlar;
- yuridik shaxsning ustavi, boshqa ta'sis hujjatlari, shuningdek Qarz oluvchi, Garov qo'yuvchi, Kafil va shu kabilar vakili bo'lgan shaxsning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar;

- kredit o'zini oqlashi hisob-kitobini chiqarish hamda kredit berish maqsadga qanchalik muvofiqligi haqida qaror qabul qilish uchun Bankka zarur bo'ladigan boshqa qo'shimcha hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi "Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", PF-3619-sonli farmoniga binoan 2005 yilning 1 iyulidan boshlab tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan huquqiy ta'sir choralari faqat sud orqali qo'llanish tartibi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 maydagi PF-3750-sonli farmoniga ko'ra «Mikrocreditbank» aktsiyadorlik tijorat bankini tashkil etildi. «Mikrocreditbank»ga kichik biznes, xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga, fermer va dehqon xo'jaliklariga o'zlarining ishlab chiqarish faoliyatini mustahkamlash va kengaytirishlari uchun mikrocreditlar berish, keng ko'lamdagi bank hamda konsalting xizmatlari ko'rsatish kabi vazifalar yuklatildi. Shuningdek «Mikrocreditbank» 2011 yilning 1 yanvarigacha:

- daromad (foyda) va mulk soliqlari to'lashdan;
- olib kelinadigan bank uskunolari va texnologiyalari uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtirishi uchun yig'implardan tashqari);
- bank foydasiga undirilgan mulkni sotishda qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mikrokreditbank" aksiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2008 yil 10 noyabr, PF-4051sonli farmonga asosan 2008-2009 yillarda "Mikrokreditbank" aksiyadorlik tijorat bankining ustav kapitalini 72 mlrd. so'mga ko'paytirib, uning umumiy miqdorini 150 mlrd.so'mga etkazish to'g'risida taklif berildi hamda "Mikrokreditbank" tomonidan quyidagi imtiyozlar berildi:

- tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun 18 oygacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 200 barobari miqdoridagi imtiyozli mikrokreditlar bo'yicha maksimal stavkani yillik 5 foizdan 3 foizga tushirildi;
- kichik biznes sub'ektlari faoliyatini kengaytirish va aylanma mablag'larini to'ldirish uchun 24 oygacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 500 barobari miqdoridagi mikrokreditlar bo'yicha - Markaziy bank tomonidan qayta moliyalashtirish stavkasining 100 foizidan 50 foiziga tushirildi;
- kichik biznes sub'ektlari uchun 3 yilgacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 2000 barobari miqdoridagi imtiyozli mikrolizing xizmatlari bo'yicha maksimal stavkani yillik 7 foizdan 5 foizga tushirildi.

Bunda tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun avval olingan mikrokreditlar va unga qo'shilgan foizlarini o'z vaqtida va to'liq qaytarib bergan tadbirkorlik sub'ektlari biznesni yanada rivojlantirish uchun keyingi mikrokreditlarni olish va "Mikrokreditbank" ATB xizmatlaridan foydalanishda ustunlik huquqiga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish to'g'risidagi tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-4010–sonli farmoniga (19.11. 2008 y.) ko'ra iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy

sog'lomlashtirish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Ushbu farmonga asosan bankrot deb e'lon qilingan ishlab chiqarish korxonalarini auksion va tanlov savdolarida tijorat banklariga mulk sifatida sotiladi, banklar tomonidan bankrot korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va qayta tiklash, ularni texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalash hamda qaytadan jihozlashni tahminlash, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha investitsiya majburiyatlari qabul qilinadi, shuningdek keyinchalik korxonalarni strategik investorlarga bozor qiymatida sotish mumkin.

2.2. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash xususiyatlari va holati tahlili

Mustaqillik yillarida banklardagi depozitlar bazasining yanada mustahkamlanishi va umumiy kapitalning oshirilishi banklarning kreditlash va investitsiyalash imkoniyatlarini kengaytirib, bank aktivlari hajmining oshishiga imkon bermoqda.

Bundan tashqari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 2017 yilning 1 yanvaridan yillik hisobda 10 foizdan 9 foizga tushirildi va yil davomida o'zgartirilmasdan saqlab turildi. Bu esa, o'z navbatida pul bozorida foiz stavkalarining pasayishiga olib kelib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xarajatlarining kamayishi va buning natijasida ularning investitsion faolligini oshirishga xizmat qildi.

Shu bilan birga mamlakatimizda tijorat banklari va bankdan tashqari kredit tashkilotlari tomonidan ajratiladigan mikrokreditlarning ta'minoti sifatida kredit qaytarilmasligi xatarini sug'urtalashda sug'urta polisini qo'llash amaliyotini kengaytirish, yakka tartibdagi tadbirkorlarga, jumladan, kasb-hunar bilim yurtlari bitiruvchilariga berilgan tijorat banklari kreditlari bo'yicha ta'minot sifatida jismoniy shaxslarning mol-mulkini garovga olish amaliyoti keng joriy qilindi.

2-jadval**Bank tizimining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi ulushi¹⁰**

mlrd. so'm

Ko'rsatkichlar nomi	01.02.2017 y.	01.02.2018 y.
YaIM 2017 yil uchun*	199 325,1	249 136,4
Bank aktivlari, jami	84 029,2	169 638,1
Aktivlarning YaIMga nisbati, foizda	42,2%	68,1%
Kredit qo'yilmalari, jami	53 735,1	113 778,4
Kredit qo'yilmalarining YaIMga nisbati, foizda	27,0%	45,7%
Jalb qilingan jami depozitlar	36 258,9	58 212,4
Depozitlarning YaIMga nisbati, foizda	18,2%	23,4%
Jami kapital	9 195,8	21 945,0
Jami kapitalning YaIMga nisbati, foizda	4,6%	8,8%

Yuqoridagilarga ishchshimcha ravishda shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 yanvarda qabul qilingan «2011-2017 yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida islohotlar ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirish, mamlakatda ishchanlik muhitini shakllantirishning mezonlari va baholash tizimini aniqlash va amalga oshirishga doir choralar-tadbirlar Dasturi to'g'risida»gi PQ-1464-sonli Qaroriga asosan, tijorat banklarida kichik biznes sub'ektlariga kreditlarni ajratishda garovga qo'yilgan mulkni rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni kreditning umumiy summasida aks ettirish amaliyoti joriy qilindi.

Mamlakatimiz tijorat banklarining jami aktivlari 2,01 barobarga, iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari umumiy qiymati esa 2,11 barobarga ko'paydi va bu holat bank tizimining iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi rolining tobora oshib borayotganligini ko'rsatmoqda

Tijorat banklari aktivlarining umumiy summasi 2018 yilning 1 fevral holatiga ko'ra, 2017 yildagiga nisbatan 25,1 foizga oshib qariyb 169,6 trln. so'mni tashkil etdi (3-jadval).

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumoti

So'ngi yillarda mamlakat tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratilgan kreditlarning 86,7 foizi ichki manbalar hissasiga to'g'ri keladi.

Shu jumladan, tijorat banklari kredit qo'yilmalarining umumiy hajmi 2017 yilda 111,7 foizga oshib, 2018 yilning 1 fevral holatiga 113,8 trln. so'mni tashkil etdi.

3-jadval

Bank tizimi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari¹¹

mlrd. so'm

Ko'rsatkichlar nomi	01.02.2017 y.			01.02.2018 y.			Nominal o'sishi, foizda	Haqiqiy o'sishi, (devalvatsiyani hisobga olmagan holda) foizda
	jami	shundan, xorijiy valyutada	ulushi, foizda	jami	shundan, xorijiy valyutada	ulushi, foizda		
Bank aktivlari, jami	84 029	35 638	42%	169 638	107 694	63%	101,9%	25,1%
Kredit qo'yilmalari, jami	53 735	23 019	43%	113 778	70 467	62%	111,7%	33,2%
Jalb qilingan jami depozitlar	36 259	9 659	27%	58 212	28 273	49%	60,5%	13,9%
Jami kapital	9 196	2 319	25%	21 945	6 202	28%	138,6%	98,3%

2017 yilda iqtisodiyot real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlar hajmi 2016 yildagiga nisbatan 27,7 foizga oshib, ularning tijorat banklari jami kredit portfelidagi salmog'i 79,8 foizni tashkil etdi.

Yaratilgan qulay investitsiyaviy muhit, jumladan, banklarning kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab tabaqalashtirilgan foyda solig'i stavkalarining joriy etilganligi tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Banklarning investitsiya jarayonlaridagi ishtiroki yanada faollashib bormoqda. Banklar tomonidan ajratilayotgan investitsion kreditlar ustuvor ravishda iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy

^{11 11} O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumoti

jihatdan yuksaltirish hamda yangi ish o'rinlari tashkil etishga qaratilgan dasturlar doirasidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.

Inqirozga qarshi choralar dasturi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi PF-4053-sonli "Iqtisodiyot real sektori korxonalarini moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2008 yil 28 noyabrdagi PF-4058-sonli "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarining qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi Farmonlarida belgilangan vazifalarning ijrosi izchil amalga oshirilmoqda.

4-jadval

Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha ulushi¹²

Ko'rsatkichlar nomi	01.02.2017 y.		01.02.2018 y.		O'zgarishi, foizda
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	
Jami kreditlar	53 735	100%	113 778	100%	111,7%
Sanoat	18 649	34,7%	46 055	40,5%	147,0%
Qishloq xo'jaligi	3 246	6,0%	5 778	5,1%	78,0%
Qurilish sohasi	2 323	4,3%	3 725	3,3%	60,3%
Savdo va umumiy xizmat	4 059	7,6%	5 194	4,6%	28,0%
Transport va kommunikatsiya	7 135	13,3%	16 312	14,3%	128,6%
Moddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish	574	1,1%	457	0,4%	-20,3%
Uy-joy kommunal xizmati	442	0,8%	988	0,9%	123,6%
Jismoniy shaxslar	9 620	17,9%	13 647	12,0%	41,9%
Boshqa sohalar	7 687	14,3%	21 622	19,0%	181,3%

Xususan, 2017 yilda korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan jami 113,8 trln. so'm yoki 2017 yildagiga nisbatan 111,7 foiz ko'p kreditlar ajratildi (4-jadval).

2017 yilda, tijorat banklari tomonidan sanoat tarmog'iga jami ajratilgan kreditlarning 46,05 foizi to'g'ri kelgan, keyingi o'rinni qishloq xo'jaligiga to'g'ri kelib jami kreditlarning 5,1 foizi berilgan. Biroq bu oldingi yilga nisbatan 1,0 foiz

^{12 12} O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumoti

kam ulushni tashkil etgan. Berilgan kreditlarning 14,3 foizi transport va kommunikatsi tarmog'iga to'g'ri kelgan. Jismoniy shaxslar tomonidan esa ajratilgan kreditlarning 12 foizi foydalanilgan. Ammo bu oldingi 2016 yilgan nisbatan 5,9 foizga pasayganligini ko'rsatmoqda.

Shundan, 2,5 trln. so'mi soha sub'ektlariga ajratilgan mikrokreditlar bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2016 yildagiga nisbatan 1,3 barobardan ziyodga oshdi. «Mikrokreditbank» tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 362 mlrd. so'm miqdorida yoki 2016 yilga nisbatan 1,2 barobarga ko'p mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatildi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4725-sonli Farmoni bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining yanada erkinlashtirilishi hamda ular uchun yaratilgan imtiyoz va qulayliklar, sohaning yanada rivojlanishiga va natijada ushbu sektor sub'ektlari tomonidan bank xizmatlari va kreditlariga talabning oshishiga imkon bermoqda.

Shu bilan bir qatorda, kredit olish yuzasidan arizalarni elektron tizim orqali qabul qilish amaliyotini yo'lga qo'yish imkoniyati yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil avgustdagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2022-sonli Qaroriga muvofiq, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida respublika mintaqalarida hududiy filiallari bo'lgan «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi» tashkil etildi.

Ushbu Jamg'armaning asosiy vazifasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish, ularga zamonaviy, chet el bozorlarida raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishda va uni eksportga chiqarishda zarur huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatishdan iborat bo'lib, O'tgan qisqa davrdagi faoliyati davomida jamg'arma tomonidan 153

ta tadbirkorlik sub'ektiga umumiy qiymati 56 mln. dollardan ziyod bo'lgan eksport shartnomalarini tuzishda amaliy yordam ko'rsatildi. Jumladan, 2016 yil yanvar holatiga jamg'arma yordamida «Zartola tekstil» MChJ QK va Dae Yong Licoris MChJ QK 66,1 ming AQSh doll. miqdorida eksport shartnomalari tuzdilar. Bundan tashqari, Jamg'arma tomonidan «Asklepiy-svift» MChJ QKga 150 mln. so'm miqdoridagi moliyaviy yordam hamda xorijiy hamkorlarni topishda yordam ko'rsatildi. Ushbu yordam asosida korxona umumiy qiymati 1 mln. doll. ortiq bo'lgan ikkita eksport shartnomasi tuzishga muvaffaq bo'ldi¹³.



2-rasm¹⁴. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar dinamikasi, mlrd.so'mda¹⁵.

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, 2017 yil mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar summasi 2012 yildagiga nisbatan 3,0 barvardan ziyod oshib, 12,1 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, ajratilgan mikrokreditlar hajmi 2526 mlrd. so'mdan ziyodni tashkil etib, mazkur ko'rsatkichning ham 2012 yilga nisbatan 3,36 barobarga o'sishi ta'minlandi(2-rasm).

¹³TIF milliy banki ma'lumotlari.

¹⁴ Bank axborotnomasi. №3-4.2014 yil

¹⁵ Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining loyihalarini moliyalashtirish maqsadida xalqaro moliya institutlari va xorijiy mamlakatlar hukumatlarining kredit liniyalari va grantlari hisobidan 145,4 mln. dollar miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 yanvardagi PQ-1050-sonli «Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga asosan nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadlariga esa 1298,1 mlrd. so'mdan ziyod kreditlar ajratilib, ushbu ko'rsatkichning ham yildan-yilga o'sib bormoqda.

2017- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida moliya-bank tizimini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan maqsadli parametrlarda 2017-2021 yillarda bank tizimining jami kapitalini 2 baravar, depozitlar hajmini, jumladan omonatlarni 2,1 baravar oshirish rejalashtirilgan. Banklar kapitalini oshirish va resurs bazasini mustahkamlash investitsiya kreditlari hajmini 1,7 baravar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari loyihalarini moliyalashtirishni 2,2 baravar oshirishni ta'minlaydi.

2.3. ATB «Mikrokreditbank»ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash faoliyati va uni tahlili

So'nggi yillarda tijorat banklari kapitallashuv darajasining ortishi iqtisodiyotning real sektorida investitsion faollikning o'sishini ta'minlashda bank kreditlarining ahamiyatini ortishiga olib keldi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan moliya-bank tizimidagi islohotlar natijasida bugun yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan bank muassasalari katta-kichik sanoat korxonalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari, dehqon hamda fermer xo'jaliklarining ishonchli hamkoriga aylandi.

Bank tizimiga mulkchilikning aktsionerlik shakli joriy qilinishi yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida jami kapital, aktivlar hajmi sezilarli ravishda ortdi, shunga muvofiq bir qancha iqtisodiy normativlar ahamiyati optimal darajaga yaqinlashdi: kapital etarliligi koeffitsienti (bank mablag'larining tavakkal hisobi bilan chamalangan aktivlarga munosabati), avtonomiya koeffitsienti (aktivlarning umumiy hajmida xususiy mablag'lar ulushi).

Banklarni aktsiyalardan foydalanish vositasida xususiylashtirish jarayonida bozor ishtirokchilari, ayniqsa, xorijiy investorlar qiziqishi ko'p jihatdan banklarning «ochiqligi», amalga oshirilayotgan faoliyat va uning natijalari haqidagi ob'ektiv axborotlarning mavjudligi va qulayligiga bog'liq.

Shu bilan birga tijorat bankining moliyaviy resurslarini qayta taqsimlash va ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshishi bilan bog'liq asosiy funktsiyalari bajarilishiga boshqaruvning korporativ metodlarini sust egallagan ko'plab bank institutlarining quyi darajadagi raqobatbardoshliligi to'siq bo'ladi.

Birinchidan, ko'plab tijorat banklarida xo'jalik sub'ektlarini kreditlash uchun kerak bo'ladigan uzoq muddatli moliyaviy resurslarning zarur hajmi mavjud bo'lmaydi.

Ikkinchidan, tijorat banklari ixtiyoridagi o'sha chegaralangan moliyaviy resurslardan ham bank biznesida kuchayib borayotgan tavakkal tufayli ko'pincha nooqilona foydalaniladi va bu bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, ko'plab aktsionerlik tijorat banklarida korporativ boshqaruv quyi darajada bo'lganligi sababli, ularning aktsionerlari va potentsial investorlari ko'z o'ngida investitsiya jalb qiluvchanligi pasayib boradi, bu esa ularning rivojlanishi va raqobatbardoshlikning zarur darajasini ta'minlaydigan muhim moliyaviy resurslarni jalb etishiga xalaqit beradi.

Bunday holatlarni aniqlash maqsadida respublikamizda yirik banklardan hisoblangan ATB "Mikrokredit bank"i faoliyatini qisqacha bo'lsada ko'rib chiqishga xarakat qilamiz.

Kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli kreditlarning hajmi 16 foizga oshib, 93 mlrd. so'mni tashkil etdi va umumiy kredit qo'yilmaning 81 foiziga to'g'ri keldi.

5-jadval

ATB “Mikrokredit bank”ining asosiy faoliyati natijalari¹⁶

Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2016	01.01.2017	O'zgarish % da
Jami kapital	226614	218636	104%
Ustav kapitali	200166	200166	100%
Jami aktivlar	1210526	900830	134%
Kredit qo'yilma	820596	710029	116%
- qisqa muddatli kreditlar	159757	142248	112%
- uzoq muddatli kreditlar	660839	567782	116%
Real sektorga ajratilgan kreditlar qoldig'i	820596	710029	116%
Ajratilgan investision kreditlar	317801	271336	117%
Ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar	307667	249917	123%
Qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalar	9299	12285	76%
Depozitlar, jami	717761	437484	164%
Aholi mablag'lari, jami	194303	136749	142%
mini-banklar	142	145	98%
Boshqalar	169	158	107%


Bugungi kunda, tashkil etilgan bank tarmog'i, jumladan 85 ta filial va 142 ta minibanklar respublikamizning barcha mintaqalaridagi aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlagan holda, bank mijozlari soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 72 000 taga ko'payib, jami 330,6 ming tadan oshdi.

Bankning jami kapitali o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,9 mlrd. so'mga oshib, 2017 yil 1 dekabr holatiga 226,6 mlrd. so'mni, o'z navbatida, kapitalning etarlilik darajasi 21 foizni hamda joriy likvidlik darajasi 68 foizni tashkil etdi.

Bank aktivlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 310 mlrd. so'mga yoki 34 foizga oshgan holda 1 210 mlrd. so'mni, shundan kredit qo'yilmasi 111 mlrd. so'mga yoki 16 foizga oshgan holda 820 mlrd. so'mni tashkil etdi.

¹⁶ ATB Mikrokredit banki yillik hisoboti.2016 yil.

Bank 2017 yil 1 dekabr holatiga o'zining an'anaviy yo'nalishdagi faoliyati bilan bir qatorda, qabul qilingan 2013-2016 yillarda rivojlanish strategiyasiga asosan tizimli muhim o'zgarishlarni amalga oshirishni davom ettirdi.



3-rasm. ATB Mikrocredit banki aktivlari va kredit qo'yilmasi oshish dinamikasi.(mlrd.so'mda) ¹⁷.

Buguni kunda bank kapitalini qo'shimcha ravishda 50,0 mlrd. so'mga oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Davlat mulki qo'mitalarining xulosalari olingan holda, Hukumatga takliflar taqdim etildi.

Aholi qo'lidagi bo'sh pul mablag'larini bank kassalariga jalb etishni yanada ko'paytirish uchun hozirgi kunda tizimda 17 turdagi jozibador hamda aholi uchun qulay omonatlar mavjud bo'lib, shundan 14 ta turda milliy valyutada va 3 ta turda chet el valyutasida omonatlar qabul qilinmoqda.

“2017 yil -Keksalarni e'zozlash yili” deb atalishi munosabati bilan Boshqaruvning 2017 yil 13 martdagi 22-1-sonli qarori bilan «Nuroni», «Ko'klam», «Imkoniyat» va «Navro'z» deb nomlangan yangi jozibali omonat turlari joriy qilingan.

2017 yil 1 dekabr holatiga muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni 939 912 tani, joylashtirilgan terminallar soni esa 11670 tani tashkil etdi.

¹⁷ ATB Mikrocredit banki yillik hisoboti.2016 yil.

Joriy yil davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 846 mlrd. so'm kreditlar ajratildi, shundan ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar 307,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Jumladan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik sub'ektlariga 46,0 mlrd. so'm, o'zining tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga 40 mlrd. so'mdan ortiq kreditlar ajratildi.

Ayollar tadbirkorligi va oilaviy tadbirkorlikni har tomonlama rivojlantirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ayol tadbirkorlarga, shuningdek ishlovchilarining kamida 50 foizini xotin-qizlar tashkil etuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 2017 yilning 1 dekabr holatiga 84,2 mlrd. so'mlik imtiyozli kreditlar ajratildi va belgilangan prognoz ijrosi to'liq bajarildi.

Ayollar tadbirkorligi va oilaviy tadbirkorlikni har tomonlama rivojlantirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ayol tadbirkorlarga, shuningdek ishlovchilarining kamida 50 foizini xotin-qizlar tashkil etuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 2017 yilning 1 dekabr holatiga 84,2 mlrd. so'mlik imtiyozli kreditlar ajratildi va belgilangan prognoz ijrosi to'liq bajarildi.

Eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash, modernizatsiyalash va texnik, texnologik jihatdan qayta jihozlash, investision loyihalarni moliyalashtirish maqsadida joriy yilning o'tgan choragi davomida 317 mlrd. so'm miqdorida investision kreditlar ajratildi.

Yuqoridagilar bilan birgalikda, bank yoshlarni tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash dasturida faol ishtirok etib, kollej bitiruvchilarini, xususan qizlarni tadbirkorlikka jalb etish borasida ham keng ko'lamli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun 95,7 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 maydagi PQ-1754-sonli Qaroriga asosan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

sub'ektlariga 2017 yil davomida xizmat ko'rsatish sohasiga 42,3 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

6-jadval

**ATB Mikrocredit banki kredit qo'yilmasi va bo'naklarining
dinamikasi.(mlrd.so'mda) ¹⁸.**

№	Kredit yo'nalishi	01.01.2016 y		01.01.2017 y	
		Mrld.so'm	Ulushi, foizda	Mrld.so'm	Ulushi, foizda
1	Yuridik shaxslarga	458,8	79,16	518,2	74,27
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlarga	41,1		49,6	
3	Jismoniy shaxslarga	31,5		36,7	
4	Moliyaviy ijara	48,1		34,3	
5	Jami kreditlar va bo'naklar	579,6	100,0	697,7	100,0

ATB "mikrokredit tomonidan berilgan kreditlarning asosiy qismi yuridik shaxslarga to'g'ri kelgan. 2016 yilda uning hajmi 458,8 mlrd.so'mga, jami kredit qo'yilmalarining 79,16 foiziga to'g'ri kelgan bo'lsa bu ko'rsatgich 2017 yil yanvar holatiga 518, 2 mlrd.so'mni yoki jami kreditlar va bo'naklarning 74,27 foiziga teng bo'lgan. Demak yil davomida yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning ulushi jami kreditlar va bo'naklarning hajmida 5 punktga kamaygan.

Bank tomonidan joriy yilning o'tgan davri davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 yanvardagi PQ-1050-sonli "Nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi Qaroriga asosan ajratilgan kreditlar miqdori 96,8 mlrd. so'mni, 2009 yil 26-yanvardagi PQ-1047-sonli "Oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi Qaroriga asosan ajratilgan kreditlar miqdori 116,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

O'tgan 2016 yilda qishloq xo'jalik korxonalariga 407,7 mlrd. so'm yoki jami kredit qo'yilmalarining 58 foizi ajratilgan bo'lib, bu mablag'lar ishlab

¹⁸ ATB Mikrocredit banki yillik hisoboti.2016 yil.

chiqarish texnologiyalari hamda shu kabi maqsadlar uchun yo'naltirilgan. Jumladan ishlab chiqarish sub'ektlariga ajratilgan 2016 yildagi 35,7 mlrd.so'm kreditlarning asosiy qismi ushbu xo'jaliklarining moddiy-texnika ta'minotini mustahkamlash maqsadida ajratilgan.

7-jadval

**ATB Mikro kreditbank kredit portfelinin iqtisodiyot tarmoqlarida
kontsentratsiyalashuvi holati (mlrd. so'mda)¹⁹.**

t/r	Ko'rsatkichlar	01.01.2016 y		01.01.2017 y	
		Summa	Ulushi,%	Summa	Ulushi,%
1.	Qishloq xo'jaligi	246,2	42	407,7	58
2.	Savdo va umumiy ovqatlanish	149,0	26	120,3	17
3.	Xizmatlar	49,0	8	49,7	7
4.	Jismoniy shaxslar	72,6	13	35,7	5
5.	Ishlab chiqarish	1,5	0,6	35,3	5
6.	Qurilish	46,4	8	27,6	4
7.	Transport	3,1	1	17,9	3
8.	Boshqalar	11,8	2	3,6	1
9.	Jami	579,6	100,0	697,7	100,0

ATB "Mikro kreditbank" tomonidan ajratilgan jami kreditlarning 7 foizi xizmat ko'rsatish sohasida, 17 foizi esa savdo korxonalarida to'planib qolgan. Ammo ularning hajmi o'zgarish xususiyatiga ega bo'lib bormoqda.

Bank ushbu kontsentratsiyalashuvni pasaytirish va bank kreditlarining qaytib kelishining xavfini pasaytirish maqsadida xar yili kreditdan oladigan zararlarni qoplash zahirasi shakllantirib kelmoqda. Chunki kreditlash tijorat banklarining asosiy vazifalaridan hisoblanib, bu kiyin va murakkabdir.

Mikro kredit banki tomonidan jismoniy shaxslarga berilgan kreditlarning asosiy qismi yildan yilga o'zgarish xususiyatiga ega bo'lmoqda. Agar 2013 yilda jismoniy shaxslarga berilgan kreditlarning 58 foizi ist'emol kreditlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2016 yil holatiga uning ulushi pasayish tendentsiyasiga ega bo'lgan va uning ulushi 35 foizga teng bo'lgan.

¹⁹ ATB Mikro kredit banki yillik hisoboti.2015 yil.

**ATB Mikrokreditbank kredit portfelinig jismoniy shaxslar bo'yicha
tuzulmasi (mldr. so'mda)²⁰.**

t/r	Ko'rsatkichlar	01.01.2016 y		01.01.2017 y	
		Summa	Ulushi, %	Summa	Ulushi, %
1.	Ipoteka kreditlari	16,7	23	19,0	53
2.	Iste'mol kreditlari	42,3	58	12,4	35
3.	Ta'lim kreditlari	2,3	3	3,5	10
4.	Qoramol xaridu uchun kredit	11,3	16	0,08	0,2
5.	Boshqalar	0,1	0,3	0,6	2
6.	Jami	72,6	100,0	35,7	100,0

Aksincha holat ipoteka kreditlari bo'yicha bo'lgan. Ipoteka kreditlarining ulushi 2013 yilda bor yo'g'i jami jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning 23 foiziga teng bo'lgan bo'lsa uning 2016 yildagi ulushi 30 punktga o'sgan va yil oxirida jami kredit qo'yilmalarining 53 foizini tashkil etgan.

**ATB Mikrokreditbank kredit portfeli bo'yicha olinadigan zararlarni qoplash
zahirasi holati (mln. so'm)²¹**

№	Zaxiralar	01.01.2016 yil holatiga bo'lgan zahira	2016 yil davomida ajratilgan zahira	2016 yil davomida qoplangan zararlarni
1	Yuridik shaxslarga berilgan kreditlar bo'yicha	4276,6	1975,0	2301,6
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan kreditlar bo'yicha	64,8	59,4	5,4
3	Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar bo'yicha	49,8	27,1	22,7
4	Moliyaviy ijara bo'yicha	560,1	483,8	76,3
5	Jami	4951,3	2545,3	2406,0

²⁰ ATB Mikrokredit banki yillik hisoboti.2015 yil.

²¹ ATB Mikrokreditbank yillik hisobotlari, 2015 y

Ko'rib turganimizdek bankining yil davomida ko'rishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash maqsadida xar yili 100 mln.so'mdan 5,6 mlrd.so'mga qadar zahira shakllantirishga majbur bo'lmoqda.

Agar 2016 yil boshiga bo'yicha oladigan bo'lsak Mikrocreditbank 4951,0 mln so'm miqdorida zahiraga ega bo'lgan. Yil davomida zahirani to'ldirish uchun 2545,3 mln.so'm ajratgan bo'lsa, 2016 yilda kreditlarining zararlarini qoplashga 2330 mln so'mdan ortiq mablag'lar ajratishga majbur bo'lgan.

Yil davomida bank tomonidan jami 237 mlrd.so'mdan ortiq to'lanmay qolgan kreditlar paydo bo'lgan. Bunda asosiy o'rinda 30 kundan kam bo'lgan kreditlar miqdori 62,1 mlrd.so'mga teng bo'lgan bo'lsa, mijozlar ichida asosiy ulush yuridik shaxslarga berilgan kreditlar bo'yicha qarzarlar tashkil etgan.

Ularning jami to'lanmay qolgan kreditlardagi ulushi 191,3 mlrd.so'mga teng bo'lgan. Xulosa qilib aytganda Mikrocredit banki tomonidan ushbu mijozlarga kredit berish jarayonida ularga olinadigan ta'minotlar sifati va miqdorini to'g'ri baholashi va boshqarish zarur bo'lib qolmoqda.

10-jadval

**ATB Mikrocreditbank kredit portfelining sifati bo'yicha
holati (mln. so'm)²²**

№	Ko'rsatgichlar (kredit turi bo'yicha)	To'lanmay qolgan kreditlar miqdori, kunda.					
		30 dan kam	31-60	61-90	91-180	180 dan ko'p	Jami
1	Yuridik shaxslarga berilgan kreditlar bo'yicha	48,8	36,1	26,0	25,7	54,7	191,3
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan kreditlar bo'yicha	1,8	1,5	0,8	0,9	1,0	6,0
3	Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar bo'yicha	4,1	3,3	1,8	2,6	3,6	15,4
4	Moliyaviy ijara bo'yicha	1,4	4,6	1,9	3,4	7,0	18,3
5	Jami	62,1	45,5	30,5	32,6	66,3	237,0

²² ATB Mikrocreditbank yillik hisobotlari, 2015 y

Agar bank tomonidan kredit berish jarayonida olinadigan ta'minot turlarini tahlil qiladigan bo'lsak uning ko'rinishi quyidagi ma'lumotlarga xos ravishda o'z aksini topadi.

11-jadval

ATB Mikrocreditbank kredit portfelining ta'minlanganlik darajasi (2016 yil boshiga, mln. so'm)²³

№	Kredit ta'minoti	01.01.2016	01.01.2017
1	Ta'minlanmagan kreditlar	20391,2	148499,4
2	Ta'minlangan kreditlar, jami	559202,2	549246,8
	Shu jumladan:		
3	Transport vositalari bilan	224318,3	189947,2
4	Sug'urta polisi	132074,7	93082,8
5	Ko'chmas mulk	107305,4	136030,5
6	Uchinchi shaxs kafolati	80051,1	88461,2
7	Pul depozitlari	8274,9	5037,1
8	Texnologiya va uskunalar	4775,1	18780,8
9	Zahiralar	613,7	1774,4
10	Boshqalar	1789,0	16132,8

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki bankning ta'minlanmagan kredit miqdori yil davomida o'sgan. Uning summasi 2015 yilga nisbatan o'sish darajasi 128, 0 mln so'mdan ko'p miqdorga teng bo'lgan. Shu hisobiga bankning ta'minlangan kredit miqdori hisobot ydavrida 10 mln.so'mga qisqargan. Bu o'z navbatida Mikrocredit bankda ta'minlanmagan kreditlar hajmining oshib borayotganidan darak bermoqda.

Kredit jarayonlarining bugungi kundagi bunday holati bankdan kredit ta'minotini to'liq olib borishga majbur etmoqda.

Hozirgi sharoitda kreditlashning mazkur tartibi bank operatsiyalaridagi muammoli kreditlarni vujudga kelishiga sabab buladi.

Kredit tuplamini tashkil kilish va uni tahlil kilish jarayonida muammoli kreditlarni vujudga kelishiga kuyidagi omillar ta'sir etmoqda deb fikr bildirish mumkin:

²³ ATB Mikrocreditbank yillik hisobotlari, 2015 y

1. Kredit olish uchun berilgan buyurtmanomani yuzaki kurib chiqish natijasida.

2. Kredit oluvchining kredit kobiliyatini va qarz berish bilan bog'liq xatarni noto'g'ri baholash natijasida.

3. Kredit foizini noto'g'ri belgilash natijasida.

4. Kredit shartnomasini noto'g'ri tuzish natijasida.

O'zbekiston tijorat banklari uz faoliyatlari davomida kator muammolarga duch keladilar, ularni xal kilish esa iqtisodiyotimizning kelajakdagi taraqqiyoti uchun muhim xayotiy masaladir. Bu muammoni:

Birinchidan, navbatda, ko'pchilik bank mijozlarining konikarsiz moliyaviy axvoli keltirib chikaradi. Sir emaski, kachonlardir uz bank tizimlarini isloh kilgan mamlakatlarning kariyb barchasi u yoki bu darajada shu muammoni xal kilish zarurati bilan tuknashganlar.

Ikkinchidan; qarzdorni kredit olish kobiliyatini noto'g'ri baholash natijasida kuyidagilarga sabab bo'lishi mumkin:

- iqtisodiyot buginlari sub'ektlarini davlat ma'sarrufidan chiqishi va xususiy lashtirilishi;

- davlat karmogida bulmagan turli mulkdagi korxonalarning shakllanishi va rivojlanishi;

- korxonalarning moliyaviy barkarorligini tulik aks ettirmaydigan iborat mablaglarini ular ixtiyorida tuplanib qolishi (korxona ixtiyorida begona shaxslarning pul mablaglarini tuplanib qolishi);

- bank tizimini tulik xo'jalik hisobiga utish va bank barkarorligini tiklash uchun bank risklarini pasaytirish;

“Mikrokreditbank” aktsiyadorlik-tijorat bankida hujjatlar va murojaatlar ijro nazoratining avtomatlashtirilgan tizimi yaratilib, joriy etilgan. Mazkur dastur ijro nazorati bo'yicha barcha tegishli ijrochilarni avtomatik tarzda ijro muddatidan oldin ogohlantirib turishi hamda hujjatlarni o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu holat shuni ko'rsatadiki, bank yildan yilga o'z kredit portfelini samarali boshqarish usullarini o'zgartirishga va kreditlarning o'z vaqtida to'liq summada qaytib kelishiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

II-bob bo'yicha xulosalar

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi bank kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlariga quyidagi kredit turlarini taqdim etadi:

- oborot mablag'larini to'ldirish uchun milliy valyutadagi kreditlar, investitsiya loyihalarini moliyalash;
- import kontraktlari bo'yicha texnologiyalar, mashina-uskunalar, materiallar va xizmatlar sotib olish uchun xorijiy valyutadagi kreditlar;
- kichik biznes subektlariga milliy va xorijiy valyutada mikro kreditlar.

ATB "mikrokredit tomonidan berilgan kreditlarning asosiy qismi yuridik shaxslarga to'g'ri kelgan. 2016 yilda uning hajmi 458,8 mlrd.so'mga, jami kredit qo'yilmalarining 79,16 foiziga to'g'ri kelgan bo'lsa bu ko'rsatgich 2017 yil yanvar holatiga 518, 2 mlrd.so'mni yoki jami kreditlar va bo'naklarning 74,27 foiziga teng bo'lgan. Demak yil davomida yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning ulushi jami kreditlar va bo'naklarning hajmida 5 punktga kamaygan.

O'zbekiston tijorat banklari uz faoliyatlari davomida kator muammolarga duch keladilar, ularni xal kilish esa iqtisodiyotimizning kelajakdagi taraqqiyoti uchun muhim xayotiy masaladir. Bu muammoni:

Birinchidan, navbatda, ko'pchilik bank mijozlarining konikarsiz moliyaviy axvoli keltirib chikaradi. Sir emaski, kachonlardir uz bank tizimlarini isloh kilgan mamlakatlarning kariyb barchasi u yoki bu darajada shu muammoni xal kilish zarurati bilan tuknashganlar.

Ikkinchidan; qarzdorni kredit olish kobiliyatini noto'g'ri baholash natijasida kuyidagilarga sabab bo'lishi mumkin:

- iqtisodiyot buginlari sub'ektlarini davlat ma'sarrufidan chiqishi va xususiy lashtirilishi;

- davlat karmogida bulmagan turli mulkdagi korxonalarning shakllanishi va rivojlanishi;

-korxonalarning moliyaviy barkarorligini tulik aks ettirmaydigan iborat mablaglarini ular ixtiyorida tuplanib qolishi (korxona ixtiyorida begona shaxslarning pul mablaglarini tuplanib qolishi);

-bank tizimini tulik xo'jalik hisobiga utish va bank barkarorligini tiklash uchun bank risklarini pasaytirish.

Xulosa qilib aytganda bankning kredit siyosatini olib borish, kredit portfelini samarali natijasini ta'minlashni ko'zda tutganligi uchun banklarning kredit portfelini tashkil qilishga ta'sir qiluvchi omillar ichida banklar xizmat ko'rsatish bozorining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan har bir bank o'zi tanlagan bozor sektoridagi asosiy mijozlarning qarz mablag'iga bo'lgan talabini hisobga olishi kerak.

III-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MIKROMOLIYAVIY XIZMATLAR BOZORINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

3.1. O'zbekistonda mikromoliyaviy xizmatlar bozoridagi mavjud muammolar

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining etakchi tarmoqlaridan biri bo'lib qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Shu bilan birga mikromoliyaviy xizmatlarning asosiy qismi ham milliy iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi sektorida amalga oshirilib kelmoqda. Shuning uchun milliy iqtisodiyotni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi xukumati iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, mamlakatimiz xukumati va Markaziy banki tomonidan real sektor korxonalarining faoliyatini moliyalashtirish va moliyaviy rag'batlantirishga katta e'tibor berilmokda. Xususan, inflyatsiyaning sezilarli darajada pasayishi tijorat banklari kreditlari foiz stavkalarining pasayishiga va shuning asosida iqtisodiyotning real sektoriga ajratilayotgan kreditlar hajmining yuqori darajada oshishiga olib keldi. Tijorat banklarining kreditlari esa, qishloq xo'jaligi korxonalarining faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Tijorat banklarining kreditlari hisobidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning joriy va investitsion xarajatlari moliyalashtiriladi. Agar qisqa muddatli bank kreditlari hisobidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning joriy xarajatlari kreditlansa, bankning va uzoq muddatli kreditlari hisobidan ularning investitsion xarajatlari moliyalashtiriladi. Shu boisdan ham, tijorat banklarining etarli darajada resurs manbalariga ega bo'lishi xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy mablag'larga bulgan ehtiyojlarini kondirishda muxim rol o'ynaydi.

Respublikamizning tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratilayotgan kreditlarning 84,6 foizini uzoq muddatli kreditlar tashkil etmokda²⁴. Bu esa, bank kreditlarini asosan real sektordagi ustuvor investitsion loyixalarni moliyalashtirishga yunaltirilganligidan dalolat beradi.

²⁴ Bank axborotnomasi. 2016 yil. № 4.

Shunisi xarakterliki, respublikamiz banklarining kredit qo'yilmalari tarkibida uzoq muddatli kreditlar yuqori salmokni egallaydi. Bu esa, investitsion xarajatlarni moliyalashtirishga katta e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi. Bugungi kunda respublikamiz qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash tizimini yanada takomillashtirishning ob'ektiv zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

-yangi tashkil qilinayotgan fermer va dehqon xo'jaliklarining kredit olishi uchun o'zining aylanma mablag'lari va garovga qo'yadigan mulkining etishmasligi;

-qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchi fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatida tavakkalchilik darajasining yuqoriligi, va aksincha garov majburiyatlarining kuchsiz ekanligi sababli tijorat banklari tomonidan ularni kreditlash salmog'ining pastligi;

-fermer xo'jaliklarini er uchastkasiga bo'lgan ijara huquqi va bo'lg'usi hosilni garovga qo'ygan holda kredit olish mexanizmini amalda to'liq ishlamasligi;

-halqaro kredit liniyalarni jalb qilish bo'yicha qo'yilgan talablariga asosan fermer va dehqon xo'jaliklarida loyiha hajmining 25 foiziga teng hususiy kapitalning yo'qligi; fermer va dehqon xo'jaliklarida loyiha hajmining 120 foiziga teng miqdordagi garov mulkining yo'qligi;

-xorijiy investorlar kredit liniyalari bo'yicha eng kam kredit miqdori 50 ming AQSh dollarini tashkil qilishi sababli fermer va dehqon xo'jaliklari tomonidan shu miqdorgacha bo'lgan asbob-uskunalarni kredit orqali harid qilish imkoniyatiga ega emasligi va boshqalar.

Bugungi kunda davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla mahsulotlaridan tashqari barcha turdagi mahsulotlarni, jumladan oziq-ovqat mahsulotlarini etishtirishni kreditlashda ham muayyan muammolar mavjud. Jumladan, erga bo'lgan ijara huquqi va bo'lg'usi hosilni garovga qo'ygan holda kredit olish mexanizmlarini amaliyotga joriy qilinmayotganligi, tijorat banklarida kredit resurslarining etishmasligi va boshqa shu kabi sabablar bilan izohlanadi.

Faoliyat yuritayotgan fermer va dehqon xo'jaliklarining aksariyat qismi yangi tashkil etilgan va ularda tijorat kreditlari uchun 120 foiz miqdorida garovga qo'yiladigan mol-mulk mavjud emas. Shuningdek, ularning rentabellik darajasi past (10-15 foiz) bo'lib, kreditni foizlarini qoplagan holda o'z vaqtida qaytarish imkoni yo'q. Qishloq xo'jaligida mahsulot etishtirishga sarflangan mablag' bir yilda bir marotaba aylanadi va olingan kredit ham bir yilda bir marta qaytadi. Chorvachilik tarmog'iga yo'naltirilgan kreditlar esa ko'p hollarda 2-3 yilda bir marta aylanadi. Bu holat bir tomondan fermer va dehqon xo'jaliklarini banklarning tijorat kreditlariga bo'lgan talabini kamaytirsam, ikkinchi tomondan ushbu kreditlardan foydalangan xo'jaliklarni moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir etmoqda.

Shu bilan birga ushbu ko'rib chiqilgan tartibda kreditni rasmiylashtirish jarayonining ham murakkabligi ya'ni, fermerlarni er uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini garovga qo'yishga mahalliy xokimiyat va idoralarning rozilik bildirishi, ijara huquqining qiymati aniqlashning mexanizmi mukammal emasligi, tijorat banklari kreditdan foydalanishi bo'yicha fermerning ishlariga aralashishi kabi muammolar mavjud. Shuningdek fermerga er maydonini 50 yilga ijaraga berilgan bo'lishiga qaramasdan ijara huquqini garovga qo'ygan holda faoliyat maqsadiga qarab 1-5 yilga kredit beriladi. Fermerning ijara huquqini garovga qo'ygan holda asosiy vositalarini tiklash va moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash uchun uzoq muddatli kredit berish ko'zda tutilmagan.

O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi Qonuni 14-moddasi 1-qismi 5-bandida bank tomonidan qonun hujjatlariga va litsenziya shartlariga zid keladigan bank operatsiyalari amalga oshirilganda Markaziy bank bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyani chaqirib olishi mumkinligi belgilangan. Bu banklarga bo'lgan ishonchning mustahkamlanishiga va buning asosida banklarning kredit berish, omonatlarni jalb qilish borasidagi faoliyati ko'lamini oshishiga xizmat qilishi mumkin.

Kreditlarning hajmi va soni oshgan sayin kreditning qaytarmaslik xatari ham ortib borishi bank amaliyotida ma'lum hodisadir. Bunday xatarlarni oldini olish

uchun kredit tashkilotlarida mijozlarning kreditning qaytarishi qobiliyatini aniqlash maqsadida moliyaviy ko'rsatkichlari (moliyaviy hisoboti), ta'minot, kreditlanayotgan loyiha (biznes reja, texnik iqtisodiy asos) tahlil qilinadi.

Bank sohasi amaliyotchilari va nazariyotchilari kredit xatari, jumladan, mijozning kreditni qaytarish qobiliyati tahlili masalasida ayrim hollarda mijoz taqdim etgan loyiha hujjatlari ko'rib chiqilib, unga ijobiy xulosa berilgan, ya'ni korxona barqaror (kutilayotgan pul oqimi kreditni qaytarish uchun etarli) bo'lsa-da, kredit berilgandan so'ng yoki qaytarish muddati etib kelgach, uning qaytarilishida muammolar paydo bo'lishini ta'kidlaydilar.

Kreditlashtirish strukturasi nazorat qilish - bunda bank jami kredit portfelini kredit turlari, miqdorlari, foiz miqdorlari, muddati, ta'minlanganligi va boshqa xususiyatlariga qarab tahlil qilish. Tahlil natijasi asosida kredit portfelida vujudga keladigan risk darajasi to'g'risida xulosa chikarish.

O'zbekiston iqtisodiyotining bank sektorida kredit riskini boshqarish muammolari bo'lib zamonaviy sharoitlarda kredit riskini boshqarishdagi asosiy muammolar bo'lib, har tomonlama va chuqur kredit jarayonining tahlil tizimini va keng qamrovli metodologik bazaning mavjud emasligi ma'lumotlar to'liq bo'lmagan sharoitlarda noto'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish hisoblanadi.

Muammoli kreditlar paydo bulgan vaktlarda banklar nima ishlarni amalga oshirishi kerak degan savol paydo buladi. Ekspertlar fikricha bunday kreditlarni kaytarish uchun kuyidagi ishlarni amalga oshirish kerak.

Muammoli kreditlarga yul kuymaslikning asosiy omillaridan biri to'g'ri ishlab chikilgan kredit siesatidir. Baza banklar karz oluvchilarga keragidan ortik talablarni kuyishi natijasida mijozlar bajaraolmaydigan holatlar paydo bulishiga ham zamin yaratmokda. Muammoli kreditlarning paydo bulishi o'z navbatida bankga karz summasi va foizining kaytarilishini dargumon qilish bilan bir katorda boshqa zararlarga ham sabab buladi. Bu zararlarni kuyidagicha ko'rsatish mumkin:

- Muammoli kreditlari ko'p bulgan banklarning obrusiga putur etadi va investorlar, jamgarmachilar, kreditorlar ishonchi yo'qoladi.

- Bankning ma'muriy xarajatlari ortadi.

- Mablaglar foyda keltirmaydigan holda aktivlarda mo'zlab koladi.
- Mijoz tomonidan bankga karshi talabning ya'ni bankning bergan kreditini kaytarish buyicha asossiz talabi mijozning moliyaviy zarariga sabab buldi degan da'vo bilan chikishi.

Hozirgi kunda ayrim qayta ishlash korxonalari yoki agrofimlar tomonidan fermer xo'jaliklariga ko'chat, mineral o'g'it va boshqa resurslarni bo'nak hisobida berish amaliyoti qo'llanilmoqda. Lyokin, bozor sharoitida bunday usuldan voz kechish, bo'nakni faqat mablag' ko'rinishida fermer xo'jaligining erkin hisob raqamiga to'laligicha o'tkazib berish, bu mablag'dan faqatgina maqsadli foydalanish, ya'ni etishtirilayotgan mahsulot uchun foydalanish ustidan nazoratni tayyorlov korxonasi va tijorat banki orqali amalga oshirish tartibini joriy qilish maqsadga muvofiq.

Magistrlik dissertatsiya ishi mavzusi yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini mikromoliyalash bilan bog'liq bo'lgan quyidagi muammolar aniqlandi:

- bozor infratuzilmasi, shu jumladan, mikromoliyaviy infratuzilmaning to'liq shakllanmaganligi va etarli darajada rivojlanmaganligi, ushbu xizmat bozorining hududlar bo'yicha notekis joylashganligi;
- tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlarini kreditlashdagi muammolarning mavjudligi;
- Respublikada moliyaviy va mikromoliyaviy xizmatlar bozorining etarli darajada rivojlanmaganligi;
- kichik biznes sub'ektlarini mikrokreditlash amaliyotini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning mavjudligi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan investitsiya, boshlang'ich va aylanma kapitalni to'ldirish uchun katta hajmdagi kreditlarga ehtiyoj mavjudligi;
- mamlakatimiz ta'lim sohasida, xususan, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining zamonaviy bilim va ko'nikmalarini kichik tadbirkorlik sohasiga

tatbiq etishni rag'batlantirishga mo'ljallangan kreditlash tizimining hali etarli darajada to'liq shakllanmaganligi;

- xorijiy moliyaviy fondlar tomonidan ajratilayotgan kreditlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, jumladan tadbirkor ayollar ish faoliyatiga jalb etish jarayonlarining sustligi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini yanada kengaytirishda xorijiy mamlakatlar xalqaro moliya institutlari va hukumatlari imtiyozli kredit liniyalari va grantlarini jalb etish imkoniyatlaridan to'liq foydalanmaslik;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish maqsadida xalqaro moliya institutlarning mablag'larini milliy tijorat banklarida joylashtirish va sub'ektlarga taqdim etishda moliyaviy xarajatlar darajasining yuqoriligi.

Xulosa kilib aytganda, respublikamizda shakllangan tadbirkorlik sub'ektlarini tijorat banklar tomonidan kreditlashning amaldagi tizimi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi fermer va dehqon xo'jaliklarini boshqa tarmoqlardagi tadbirkorlik su'ektlari bilan teng sharoitga qo'ymoqda. Ya'ni, sanoat yo'nalishidagi kichik korxonalarda tijorat banklaridan olingan kreditlarning qaytimi qisqa muddatlarni tashkil etib, foiz stavkalarini (qarzlarni) to'lash imkoniyati mavjud. Ammo, fermer va dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarishga sarflangan moliyaviy mablag'lar qaytimi (daromad olishi) yil yakuni bilan bog'liq. Chorvachilik bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlar esa 2-3 yildan keyingina daromad olib, sarflangan xarajatlarni, shu jumladan bank kreditlarini yoki kredit foizlarini qaytarish imkoniyatiga ega.

3.2. O'zbekistonda mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish tizimini rivojlantirishning yo'nalishlari

Iqtisodiy taraqqiyotning jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, agrar tarmoqning jadal o'sishi mamlakatda umumiy iqtisodiyotning o'sishi uchun asosiy omillardan

biri bo'lib xizmat qiladi. Qishloq xo'jaligi korxonalari tashkil topishining dastlabki bosqichida korxonani tashkil etayotgan mulkdor yoki agar ular bittadan ortiq bo'lsa, muassislarning sarmoyalariga tayanadi. Odatda, korxona mulkdorlari uning tashkil topishi jarayonida to'lanishi lozim bo'lgan turli to'lovlarni o'z sarmoyalari hisobidan amalga oshiradilar.

ATB "Mikrokreditbank"i jamoasi kirib kelgan 2017 yilda ham iqtisodiyotning real sektori korxonalarini moliyaviy ko'llab-quvvatlashga, mahalliy xom ashyodan import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga va xizmatlar ko'rsatishga mo'ljallangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari loyihalarini moliyalashga, shu bilan birga ipoteka kreditlarini berish bilan bog'liq ishlarni yanada davom ettiradilar.

Bankning strategik maqsadi moliya bozorida zamonaviy, raqobatbardosh va universal bank sifatidagi o'z pozitsiyasini saqlab qolish, O'zbekiston hamda xorijdagi tegishli kon'yunktura o'zgarishlariga chidamli bank faoliyatini rivojlantirish va mustahkamlashdan iborat. Shu munosabat bilan, quyidagilar bank tomonidan 2016 va keyingi yillarda bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 6 maydagi "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2344-sonli Qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida:

- ✚ bank tizimining moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini yanada oshirish,
- ✚ bank resurs bazasini mustahkamlash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish,
- ✚ bankning investitsiyaviy faolligini rag'batlantirish,
- ✚ umumqabul qilingan xalqaro me'yor va standartlarga muvofiq bank faoliyatini tashkil etishni yanada yuqori darajaga chiqishini ta'minlash vazifalarini amalga oshirish;
- ✚ Bosh bank va filiallarni mukammal tayyorlangan hamda zamon talablariga javob beruvchi yuqori malakali mutaxassislar bilan butlash, bank-

moliya sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish.

✚ Bank infratuzilmasini rivojlantirish, tadbirkorlik sub'ektlari va aholining bank xizmatlaridan keng ko'lamda foydalanishini ta'minlash maqsadida bank tarmog'ini yanada kengaytirish.

Korxonalar ishlab chiqarishni tashkil etishga mablag'lar jalb etishda, birinchi navbatda, o'zlarida mavjud mol-mulk va jamg'armalarga murojaat etishga harakat qiladilar. Chunki, bu korxona mustaqilligini ta'minlashning eng maqbul yo'lidi. Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o'zgartirishlar bo'yicha ishlab chiqarilayotgan chora-tadbirlar avvalo quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilmog'i lozim:

Birinchidan, qishloq xo'jaligi xom ashyosini chuqurroq qayta ishlash, ularni tayyor mahsulot darajasiga etkazish, yangi qayta ishlovchi quvvatlarni yaratish, keng miqyoslarda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, trikotaj, to'qimachilik, tikuvchilik sanoatini, sermehnat tarmoqlarni rivojlantirish, tayyor buyumlarning xillarini ko'paytirish, ularni tashib keltirish va eksportni oshirish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash texnologiyasi juda orqada qolganligi tufayli har yili kartoshka, karam, lavlagi, sabzi qisqada boshqa sabzavot va mevalarning bir qismi isrof bo'lmoqda.

Bundan tashqari respublikada 2018 yilda chorvachilikni, jumladan qoramolchilik, qorakulchilik va echkichilikni rivojlantirish, chorva mollari maxsuldorligini oshirish, maxsulot ishlab chiqarish xajmlarini ko'paytirish xisobiga aholi iste'moli uchun ichki bozorlarni arzon va sifatli go'sht maxsulotlari bilan ta'minlash hamda mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida chorvachilikda naslchilik ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, ayniqsa, aholi xonadonlari va fermer xujaliklardagi qoramolchilikni salmog'ini oshirish xisobiga zotdor qoramollar bosh sonini ko'paytirish va ularning maxsuloldorligini oshirish hamda qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirishda birinchi navbatda, asosiy e'tiborni ozuqbop ekinlarni turlari bo'yicha joylashtirishga qaratish va ushbu maydonlardan samarali foydalanish, shu jumladan, oraliq ekinlar ekish tizimini

yo'lga evaziga mustaxkam ozuqa bazasini yaratish kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan.

Shunga ko'ra, mazkur qaror oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni keskin oshirib, bozorlarimizning yanada to'kin-sochinligini kafolatli ta'minlabgina qolmay, ularni qayta ishlash orqali yangi ish o'rinlari tashkil etishga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport hajmini oshirib, dehqonning, shu jumladan, fermerlarning daromadi yanada ko'payadi.

Dehqon-fermer xo'jaliklari tomonidan ho'l meva va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarini komissiya shartnomalari asosida eksport qilishda komissiya xizmati uchun to'lov miqdori 1 foizdan oshmasligi hamda quritilgan va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari eksportga oldindan 100 foiz to'lash yoki akkreditiv ochish yoxud xaridorning moliyaviy barqarorlik darajasi yuqori bo'lgan eng ishonchli banklari kafolati bilan, ho'l meva-sabzavot mahsulotlari esa oldindan kamida 30 foiz to'lash shartlari asosida etkazib berilishi qa'ttiy belgilab qo'yildi.

Tijorat banklariga fermer va dehqon xo'jaliklariga meva-sabzavot, kartoshka, poliz mahsulotlari va uzum xarid qilish uchun davlat buyurtmasi bo'yicha bo'nak va yakuniy hisob-kitoblar uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo'lmagan stavkada kredit resurslari ajratish tavsiya etildi.

Bugungi kunda, soxada amalaga oshirilayotgan ishlarni tanqidiy baholagan holda mavjud mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, naslchilik ishlarini yanada takomillashtirish, echkichilikni rivojlantirish, ishlab chiqarishga intensiv texnologiyalarni joriy etish, ozuqa ekinlarini etishtirish ishlariga etarli darajada e'tibor berilmayotganligi ko'rsatib o'tish lozim.

Yuqorida ko'rib o'tilganlar va tahlil natijalari mamlakatimiz qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda banklarning faolligini oshirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatmoqda:

1. Qishloq xo'jaligi korxonalarini banklar tomonidan kreditlash hajmini oshirish maqsadida tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash tadbirlarini ishlab chiqish lozim. Buning uchun quyidagi aniq tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

a) qishloq xo'jaligini kreditlash bilan shug'ullanayotgan tijorat banklarining muddatli va jamg'arma depozitlarini majburiy zahira ajratmasidan ozod qilish yoki ularga nisbatan imtiyozli zahira stavkalarini joriy qilish lozim.

Yana bir muammo shundaki, jahon bozorini o'zlashtirish ko'p jihatdan qishloq xo'jaligi mahsulotining ko'rinishi bilan bog'liq. Bunda mahsulotlarni navlarga ajratish, o'rash, qadoqlash va uning ayniqsa tez buziladigan turlarini iste'molchilarga o'z vaqtida etkazib berilishi ko'zda tutiladi.

Oziq-ovqat mahsulotini qayta ishlashga xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish, qo'shma korxonalar tashkil etish, ular orqali jahon bozoriga chiqish zarur.

Qishloq xo'jaligi xom-ashyosini qayta ishlash va tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha ixcham texnologiya bilan jixozlangan kichik va o'rta korxonalarni barpo etish lozim.

Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini kreditlash shakllaridan to'liq foydalanishni ta'minlash lozim.

Kreditlash shakllaridan to'liq foydalanish bank kreditlaridan qishloq xo'jalik korxonalarining faoliyatida foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Har qanday taraqqiyot jarayoni qarama-qarshiliklar, muammolar asosida mukammallashib boradi. Mamlakatimiz tijorat banklari taraqqiyoti jarayonida ham bir qator echimini kutayotgan muammolar mavjud:

1. Tijorat banklari depozitlari asosiy qismining muddatsiz yoki qisqa muddatlilik. Tijorat banklar depozitlari tarkibida talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlarning ulushi ko'p (63%) va ular arzon bo'lishiga qaramasdan, riski yuqori resurs hisoblanadi. Mablag'larni jamlash operatsiyalarining hajmi va tarkibi banklarning kredit va investitsiya portfeli holatini belgilaydi hamda investitsiya faoliyatiga ta'sir qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Investitsiyalar uzoq muddatli operatsiyalar bo'lganligi sababli, uzoq

muddatli resurslarni talab qiladi. Tijorat banklarimiz resurslarining asosiy qismi esa talab qilib olinguncha depozitlarga yoki qisqa muddatli depozitlarga to'g'ri keladi. Jami depozitlar tarkibida uzoq muddatlarining ulushini ko'paytirish maqsadida tijorat banklari uchun mamlakatimizda bir qancha imtiyozlar joriy qilingan.

2. Aholining bank tizimiga ishonchini yanada oshirish kerak; Jismoniy shaxslar omonatlarining jami bank tizimi depozitlaridagi ulushi taxminan 27% dan ko'proqni tashkil qiladi. Bu jami banklar aktivlariga nisbatan 10,8% ni tashkil etadi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar jarayonida qo'yidagi xulosalar shakllantirildi:

Banklarning kredit faoliyatini tekshirish amalda shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda bankning ichki instruktiv materiallari va nizomlari ishlab chikilgan bo'lib, buning ijrosini samarasi yukdir. O'rnatilgan Nizom va tartiblar kachonki uning ijrosi uz vaktida bo'lganda va uning ustidan doimiy ijro nazorati o'rnatilgandagina samara beradi. Bularga kredit bulimini nizomi va mansabdor shaxslarni instruktiv materiallari, burchlarini taksimoti va kredit berish to'g'risida ko'rsatma, kredit kumitasining karori shu kabilar tegishlidir. Shuningdek, kredit ekspert kumita a'zolarin ish saviyasini pastligi va uning vakolatlarini ayrim joylarda chegaralanganligi hisoblanib, bu tijorat banklarining faoliyatiga salbiy ta'sir etadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ravnaq topishi uchun tijorat banklari o'z kredit resurslarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha takomillashtirish maqsadga muvofiqdir:

- investitsion maqsadlar – korxonalarni modernizatsiyalash va texnologik yangilash, zamonaviy yuqori texnologiya asosida innovatsion ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda boshlang'ich kapital va aylanma mablag'larni to'ldirish;

- tadbirkorlik tuzilmalari, fermer xo'jaliklariga minitexnologiya va ixcham asbob-uskunalar xarid qilishi va ko'rsatiladigan lizing xizmatlar xajmini oshirish;

- iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi xo'jalik sub'ektlariga xomashyo va materiallar sotib olish, faktoring xizmatlari ko'rsatish hajmini oshirish;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda soha vakillariga ko'rsatiladigan bank xizmatlari hajmini oshirish;

- "Mikrokreditbank" tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga, eng avvalo xizmat ko'rsatish va servis sohasini, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun ko'rsatiladigan mikromoliyaviy xizmatlar hajmini oshirish.

Shuningdek, banklar tomonidan imtiyozli kreditlash hajmini kengaytirish talab etiladi:

- kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining olgan zamonaviy bilim va malakalarini amaliyotga qo'llash, ularni iqtisodiyotning ushbu sohasiga jalb etishni kengaytirish uchun ularning tadbirkorlik loyihalariga ko'rsatiladigan mikromoliyaviy xizmatlar hajmini 2 va undan ziyodga oshirish;

- ustuvor ravishda uzoq va borish qiyin bo'lgan tumanlar, shuningdek mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan tumanlar va shaharlarda joylashgan ishlab chiqarish mikrofirmalari, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklarining yuqori texnologiyali va innovatsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan imtiyozli kreditlar hajmini 20-30 foizga oshirish.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 28-moddasi 1-qismiga asosan "Bank operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari va vositachilik haqi miqdori banklar tomonidan mustaqil belgilanadi".

Biroq, 2006 yil 20 sentyabrdagi "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunda mikrokredit tashkilotlari tomonidan beriladigan mikrokreditlar va mikroqarzlar bo'yicha foiz stavkalari kim tomonidan qay tartibda belgilanishi nazarda tutilmagan. Mazkur masala mikrokredit tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi hech bir normativ hujjatda ham tartibga solinmagan.

"Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasi 1- kismida "Mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish sohasida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va ushbu Qonunga muvofiq boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxe mikrokredit tashkiloti" ekanligi belgilangan

bo'lib, uning asosida mikrokredit tashkilotlarining bank hisoblanmasligini ta'kidlash mumkin. Shu boisdan yuqorida qayd etilgan bank operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalarini belgilashda banklarning mustaqilligini belgilovchi qoidani mikrokredit tashkilotlariga nisbatan qo'llab bo'lmaydi.

Shu boisdan amaliyotda bu borada turli tushunmovchiliklar yuzaga kelishining oldini olish maqsadida "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunga mikrokredit tashkilotlarining foiz stavkalarini belgilash tartibini belgilovchi qo'shimcha kiritish zarur.

Bankdan kredit olgan yoki bankka omonat qo'ygan mijozlarning huquqlarini himoya qilish, banklar tomonidan kredit foiz stavkalarini bir tomonlama oshirilishi yoki omonat foiz stavkalarini bir tomonlama pasaytirilishining oldini olish maqsadida "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunda banklarning kreditlar va omonatlar bo'yicha foiz stavkalarini bir tomonlama o'zgartirishga haqli emasligini belgilovchi qoidani kiritish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit operatsiyalaridan foydalanishda, ular tomonidan kredit siyosatini to'g'ri tashkil kilinganligiga baxo beradi. Unda kredit berish tartibi, kredit berishda javobgar shaxslarni ma'suliyati bo'lib berilganligi, kreditlarni berish to'g'risida karor chikaruvchi organ, ya'ni kredit kumitasi tuzilganmi, tuzilgan bo'lsa necha kishidan tashkil topganligi, mijozni kredit qobiliyati kay axvolda ekanligi bilish shu kabilardan iborat bo'ladi.

O'zbekistonda tijorat banklarining kreditlashtirish jaraenini takomillashtirish uchun uz faoliyatlarini iloji boricha ko'prok kredit portfelining sifatini doimiy ravishda tahlil kilib borishlari kerak.

O'tgan davr mobaynida kredit tavakkalchiliklarini kamaytirish maqsadida Kredit Axboroti Milliy Instituti (KAMI) elektron bazasiga ma'lumotlarni taqdim etish hamda ma'lumotlar almashuvini ta'minlash borasidagi ishlar yanada jonlantirilib, bank mijozlarining kredit tarixi yaratilishiga o'z hissasini qo'shib keldi. KAMI elektron bazasiga ma'lumotlar almashinuvida kredit bo'limi xodimlarining kredit berish jarayonida tavakkalchilikni minimallashtirishga, kredit

oluvchi xo'jalik yurituvchi sub'ekt hamda kafil tashkilotlarning kredit tarixini bilishiga imkon beradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston tijorat banklarining umumrespublika reytingida "Axbor-reyting" Banklararo reyting kompaniyasi bilan shartnoma asosida bankning muntazam ishtirok etishi yo'lga qo'yilib, har chorak yakunlari bo'yicha reyting baholari natijalari matbuotda chop etilib boriladi.

Mazkur qoidalarining joriy qilinishi tijorat banklari aktivlar sifatining yanada oshishiga, muammoli kreditlarni paydo bo'lishini dastlabki vaqtlarda aniqlashtirishga imkoniyatlarni yaratadi, pirovardida tijorat banklarining omonatchilari va kreditorlarining manfaatlarini yanada himoya qilinishini ta'minlaydi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kredit tizimidagi o'rni, tijorat banklarining kredit berish mexanizmi va risklarni paydo bo'lish sabablari, unga ta'sir etuvchi omillar, undagi muammolarni hal etishda barcha imkoniyatlardan foydalanishni taqazo etadi.

III-bob bo'yicha xulosalar

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining etakchi tarmoqlaridan biri qishloq xo'jaligi hisoblanadi.

Oziq-ovqat mahsulotini qayta ishlashga xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish, qo'shma korxonalar tashkil etish, ular orqali jahon bozoriga chiqish zarur.

Qishloq xo'jaligi xom-ashyosini qayta ishlash va tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha ixcham texnologiya bilan jixozlangan kichik va o'rta korxonalarni barpo etish lozim.

Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini kreditlash shakllaridan to'liq foydalanishni ta'minlash lozim.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ravnaq topishi uchun tijorat banklari o'z kredit resurslarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha takomillashtirish maqsadga muvofiqdir:

- investitsion maqsadlar – korxonalarni modernizatsiyalash va texnologik yangilash, zamonaviy yuqori texnologiya asosida innovatsion ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda boshlang'ich kapital va aylanma mablag'larni to'ldirish;
- tadbirkorlik tuzilmalari, fermer xo'jaliklariga minitexnologiya va ixcham asbob-uskunalar xarid qilishi va ko'rsatiladigan lizing xizmatlar xajmini oshirish;
- iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi xo'jalik sub'ektlariga xomashyo va materiallar sotib olish, faktoring xizmatlari ko'rsatish hajmini oshirish.

“Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida”gi Qonunning 3-moddasi 1- kismida “Mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish sohasida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va ushbu Qonunga muvofiq boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxe mikrokredit tashkiloti” ekanligi belgilangan bo'lib, uning asosida mikrokredit tashkilotlarining bank hisoblanmasligini ta'kidlash mumkin. Shu boisdan yuqorida qayd etilgan bank operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalarini belgilashda banklarning mustaqilligini belgilovchi qoidani mikrokredit tashkilotlariga nisbatan qo'llab bo'lmaydi.

Shu boisdan amaliyotda bu borada turli tushunmovchiliklar yuzaga kelishining oldini olish maqsadida “Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida”gi Qonunga mikrokredit tashkilotlarining foiz stavkalarini belgilash tartibini belgilovchi qo'shimcha kiritish zarur.

O'zbekistonda tijorat banklarining kreditlashtirish jaraenini takomillashtirish uchun uz faoliyatlarini iloji boricha ko'prok kredit portfelining sifatini doimiy ravishda tahlil kilib borishlari kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror sur'atlarda rivojlantirish omillaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlik taraqqiyotini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu soha bozor kon'yunkturasi o'zgarishlariga tez moslasha olish, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi bandligini ta'minlash va daromad manbalarini yaratish, o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish kabi xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo'lishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir.

Xozirgi zamon bankining muvaffaqiyatli ishlashi takdim etilayotgan morliya xizmatining jamoat talab ehtiyojiga kanchalik muvofik kelishiga yoki boshka banklar kursataetgan bir xil va aynan usha xizmat uchun narxlar birdek bulgan sharoitda bir bankning byuoshkasiga nisbatan nakadar rakabatbardoshligiga, ya'ni narxga nisbatan ularning kanchalik sifatli va raqobatga bardoshli bulishiga boglik. Kupchilik banklar iktisodietda etarli darajada cheklangan vazifa-depozitlariga, omonatlarni kabul kilish va kreditlar berishni bajaradi, holos deb uylaydi. Xar kanday zamonaviy bank uzining raqobatga bardoshligini saqlab qolish hamda ayni paytda xokimiyatning moliya xizmatlariga bulgan turli-tuman va tobora o'sib boruvchi ehtiyojlariga mos holda ish kurishi uchun yangi vazifalarini uzlashtirishi lozim

Tijorat banklarining imtiyozli kreditlash hajmini kengaytirishdagi faolligini oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash hajmlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 11 martdagi qarori muhim rag'batlantiruvchi omil bo'ldi. Hujjatda tijorat banklarining Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratilgan kreditlaridan oladigan daromadlari 2016 yilning 1 yanvariga qadar foyda solig'idan ozod qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 17 martdagi PQ-2844-sonli qaroriga (7.02.2011 y.) ko'ra quyidagilar nazarda tutilgan:

- yangi ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlik sub'ektlariga faoliyatini amalga oshirish uchun olingan tovarlarni garov sifatida hisobga olgan holda eng kam ish haqining 20 barobarigacha miqdorda mikro kreditlar ajratish;

yangi davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining 60 barobarigacha miqdorda mikro kreditlar kreditlashga oid qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'minot turlari bilan bir qatorda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasida ko'rsatilgan vakolatlar doirasida kafilligi asosida ajratishni kengaytirish.

Magistrlik dissertatsiya ishi mavzusi yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini mikromoliyalash bilan bog'liq bo'lgan quyidagi muammolar aniqlandi:

- bozor infratuzilmasi, shu jumladan, mikromoliyaviy infratuzilmaning hududlar bo'yicha notyokis joylashganligi;

- tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlarini kreditlashdagi muammolarning mavjudligi;

- kichik biznes sub'ektlarini mikro kreditlash amaliyotini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning mavjudligi;

- xorijiy moliyaviy fondlar tomonidan ajratilayotgan kreditlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, jumladan tadbirkor ayollar ish faoliyatiga jalb etish jarayonlarining sustligi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini yanada kengaytirishda xorijiy mamlakatlar xalqaro moliya institutlari va hukumatlari

imtiyozli kredit liniyalari va grantlarini jalb etish imkoniyatlaridan to'liq foydalanmaslik va boshqalar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ravnaq topishi uchun tijorat banklari o'z kredit resurslarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha takomillashtirish maqsadga muvofiqdir:

- korxonalarni modernizatsiyalash va texnologik yangilash, zamonaviy yuqori texnologiya asosida innovatsion ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda boshlang'ich kapital va aylanma mablag'larni to'ldirish;

- tadbirkorlik tuzilmalari, fermer xo'jaliklariga minitexnologiya va ixcham asbob-uskunalar xarid qilishi va ko'rsatiladigan lizing xizmatlar xajmini oshirish;

- iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi xo'jalik sub'ektlariga xomashyo va materiallar sotib olish, faktoring xizmatlari ko'rsatish hajmini oshirish;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda soha vakillariga ko'rsatiladigan bank xizmatlari hajmini oshirish;

- "Mikrokreditbank" tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga, eng avvalo xizmat ko'rsatish va servis sohasini, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun ko'rsatiladigan mikromoliyaviy xizmatlar hajmini oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. T. Adolat 1998
3. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 1995.
4. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 1996.
5. O'zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi qonuni T.: “O'zbekiston”2003.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tijorat banklarining kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2000 yil 19 maydagi 195-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida” Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 19 martdagi 79-sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-4354-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.11.2010 y. PK-1438-son "2011-2017 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Karori.
9. . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori,

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-sonli Farmoni.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi "2017 — 2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida"gi PQ-2639-sonli Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 22 noyabrdagi "2017 — 2020 yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uy-joylar qurish va rekonstruktsiya qilish dasturini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2660-sonli Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5296-sonli Farmoni.

15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2018 yil 21 fevraldagi 2975-sonli "Aholi bandligini ta'minlash uchun tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar ajratish tartibi to'g'risidagi nizom"i.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3182-sonli Qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3620-sonli Qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. PF-4947. 07.02.2017 y.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va nutqlari

1. Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak // Xalq so'zi. 14 yanvar 2017 yil.

2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b

3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: : “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.

4. Mirziyoev Sh.M. Mamlakatimizning etakchi ilm fan namoyondalari bilan uchrashuvidagi ma'ruzasi, 2016-yil 30 dekabr

5. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiyl mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir.//Xalq so'zi.2016 yil. 17 yanvar.

6. Karimov I.A. 2016 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi.. /Xalq so'zi. 2016 yil.18 yanvar

7. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari”. T.: O'zbekiston. 2009y.

III.Sohaga oid me'yoriy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari to'plami.T.: 2003.

3. Kredit axboroti milliy institutining ma'lumotlar bazasini shakllantirish O'amda banklararo kredit byurosiga va tijorat banklariga kredit axbortlarni tahdim etish tartibi to'g'risida Nizom. 2004 y. 21 may.

4.”Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarga va ularning boshqa korxonalar ustav kapitalida qatnashishiga qo'yiladigan talablar to'g'risida” NIZOM. 2008 yil 27 dekabr. №30/2

IV.Asosiy adabiyotlar

1. A.O'lmasov, A.Vaxobov "Iqtisodiyot nazariyasi", T. "Sharq", 2006, 223-6.

2. Larionova I.V. Upravlenie aktivami i passivami v kommercheskom banke. –M.: «Konsaltbankir» 2003.

3. Lavrushin O.I. i dr. Dengi, kredit, banki. Uchebnik. – M.: KNORUS, 2010. -560 str.
4. Lavrushin O.I., Bankovskiy menedjment. Uchebnik. – M.: KNORUS, 2010. – 560 str.
5. Lending / Chartered Institute of Bankers. - London: BPP Publishing, 2003. ISBN 0-7517-1015-6
6. Merkulova I.V., Lukyanova A.Yu. Dengi, kredit, banki. Uchebnoe posobie. – M.: KNORUS, 2010. – 352 str.
7. Rashidov O.Yu. va boshqalar Pul, kredit va banklar, Toshkent 2008 y.
8. Rashidov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. –T.: Cho'lpon, 2011. -328 bet.
9. Rouz P.S. Bankovskiy menedjment. M., 2003
10. Tojiev R., Jumaev N. Markaziy bankining monetar siyosati. T.: TDIU nashriyoti. 2002.-107 b.
11. Toymuhamedov I.R. Bank ishi. Toshkent. 2006 yil.
12. Usoskin V.M. Sovremennie kommercheskie banki. Upravlenie i operatsii. M., 2001.
13. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. - T.:Iqtisod-moliya, 2017.
14. Arifxodjaeva M.I. Tijorat banklarining innovatsion rivojlanishida marketingning roli./Monografiya/ Akademik S.S.G'ulomov taxriri ostida.-T.: "Navruz", 2017 y. 288 b.
15. Astanov X.Z. Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish. O'quv qo'llanma.- T.: "Iqtisodiyot". 2015 y. 121 b.
16. Dusqobilov U.Sh. O'zbekistonda monetar siyosatni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari./Monografiya/.-T.: "navruz" 2017 y. 172 b.
17. Karaliev T.M. tijorat banklari faoliyati tahlili. O'quv qo'llanma. Karaliev T.M. va boshqalar. -TMI. "Iqtisod-Moliya".2013 y. 192 b.
18. Keyns.Dj. M. Izbrannie proizvedeniya. – M.: Ekonomika, 1993. –72 s.
19. Rashidov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. –T.: Cho'lpon, 2011. -328 bet.

20. Sunnatov Q. Bank tizimida korporativ boshqaruvni takomillashtirish. - T.: "Akademnashr". 2016 y. 208 b.

V.Qo'shimcha adabiyotlar

1. Inozemtsev V. Est li svet v kontse krizisa? // Argumenti i fakti, №7, 2016, c.12. www.aif.ru
2. O'zbekiston respublikasi bank tizimi.F.M.Mullajonov va boshq. F.M.Mullajonovning umumiy tahriri ostida. To'ldirilgan ikkinchi nashri. T.: O'zbekiston, 2011.-368 b.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

1. Bozor, pul va kredit// №1-12 2017. №1-12, 2016 yil.
2. Bank axborotnomasi, gazetasi 2017 yil №1-52, 2018 yil № 1-20.
3. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2017 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. – T.: "O'zbekiston", 2011.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Banklar Assotsiatsiyasi yillik hisobotlari.
6. ATB "Mikrokreditbank" yillik hisobotlari.

VII.Internet saytlari

1. www.forex.com
2. www.cbu.uz.
3. www.lex.uz

Ushbu magistrlik dissertatsiya ishida mamlakat tijorat banklarining mikromoliyalashtirish tizimi va uni iqtisodiyot tarmoqlari hamda xo'jalik sub'ektlarini moliyalashtirishdagi mexanizmlari, ulardan foydalanish hamda boshqarishni takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy takliflar berilgan.

In this magistracy dissertation theoretical and practical proposals on the microfinance system of commercial banks of the country and its mechanisms for financing sectors and economic entities, their use and management are provided.

Magistrlik dissertatsiya ishi "Bank ishi" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

_____sonli bayonnoma «_____» _____2018 y.

Ilmiy rahbar: dots. I.R.Toymuhamedov "_____ " "_____ "

Opponent dots. M.Umarxodjaeva "_____ " "_____ "

Taqrizchi prof. T.Karaliev "_____ " "_____ "

Magistr: M.D. Mamadalieva "_____ " "_____ "